

VATAN UCHUN, MILLAT UCHUN, XALQ UCHUN!



VATANPARVAR

Gazeta 1992-yilning
24-iyunidan chiqa
boshlagan

2025-yil 26-dekabr
№52 (3166)

MILLIY ARMIYA – ONA YURT QALQONI, TINCHLIGIMIZ POSBONI!

www.mv-vatanparvar.uz



YANGI YIL, TINCHLIKDAN BONG UR HAMISHA!

*Yangi yil bong urar ostonamizda,
Orzular, tilaklar qoqadi qanot:
“Omad hamroh bo‘lsin, har onimizda,
Nurli istiqbolga yo‘llasin hayot!”*

*Ayyom dasturxonin bezar ne‘matlar,
Quvonch-u shukrona har nigohlarda.
Shunday bir pallada necha ming mardlar,
Yilni qarshi olar tik oyoqlarda.*

*Bayram shodligi-yu sarbaland maqsad,
Osuda damlarga yarashar rishta.
Yangi yil, har kunning quchsin saodat,
Yangi yil, tinchlikdan bong ur hamisha!*

Zulfiya YUNUSOVA



YIL

IJTIMOIIY-SIYOSIY, MA’NAVIY-MA’RIFIY, HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

t.me/mv_vatanparvar_uz
vatanparvar-bt@mail.uz
“Facebook”.com/mudofaavazirligi



t.me/mudofaavazirligi
instagram.com/mudofaavazirligi
youtube.com/c/uzarmiya

Meros

JADIDLIK G'OTALARI VA YANGI O'ZBEKISTON STRATEGIYASIDAGI UYG'UNLIK



XIX asr oxiri – XX asr boshlarida shakllangan jadidlik harakati nafaqat milliy uyg'onish, balki butun musulmon Sharqi intellektual qayta tiklanishining muhim bosqichi sifatida tarixga kirdi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, **“O'z zamonining ilg'or namoyandalari bo'lgan jadidlar g'oyat murakkab va qiyin sharoitda bilim va ma'rifat tarqatish, ta'lim-tarbiya sohasini tubdan isloh etish orqali milliy taraqqiyotga erishish g'oyasi bilan maydonga chiqdilar”**. Bugungi kunda mazkur g'oyalar Yangi O'zbekiston strategiyasida yangi mazmun va ko'lam bilan qayta namoyon bo'lmoqda.

Bundan roppa-rosa ikki yil oldin Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev jadid bobolarimizning g'oyalari Yangi O'zbekiston strategiyasi bilan hamohangligi to'g'risida shunday degan edi: **“Ma'rifatparvar ajdodlarimizning merosi bugun biz qurayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati uchun poydevor bo'lib xizmat qilishi tabiiydir. Chunki ularning g'oya va dasturlari Yangi O'zbekistonni barpo etish strategiyasi bilan har tomonlama uyg'un va hamohangdir”**.

Keling, ushbu uyg'unlikni atroflicha ko'rib chiqaylik:

Birinchidan, Yangi O'zbekiston strategiyasida “inson qadri” tamoyili bosh mezonga aylandi. U inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish, inson kapitali, ta'lim sifati, ijtimoiy adolat va tenglikni ta'minlashga qaratilgan. Bu esa jadidlarning jamiyatda ijtimoiy tenglikka erishish, aholining mehnat va ijtimoiy huquqlarini muhofaza qilish yo'lidagi intilishlari bilan mushtarakdir.

Ikkinchidan, “O'zbekiston – 2030” strategiyasining 1-bandida ta'lim tizimi islohotlariga alohida urg'u berilgan. Bunda maktabgacha ta'lim va umumiy o'rta ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish, professional ta'lim tizimini rivojlantirish orqali o'quvchilarni zamonaviy bilim va ko'nikmalarga o'rgatish, yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrab olishni kengaytirish, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish, barcha yo'nalishlarda innovatsion faoliyatni keng joriy etish, ilmiy tadqiqotlarni va innovatsion tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash asosiy maqsad sifatida belgilangan.

O'z davrida jadid bobolarimiz ham millat taraqqiyoti avvalo ma'rifatdan, bilim va mahoratdan boshlanishini ta'kidlab, birinchi galda usuli jadid maktablari faoliyatini yo'lga qo'ygan. Ular maktablarda zamonaviy fanlarni joriy etib, bolalarni erkin fikrlaydigan, mustaqil va tanqidiy qarashga ega shaxslar etib tarbiyalashni maqsad qilgan. “Samarqand” gazetasining 1913-yil 9-avgustdagi sonida turkistonlik jadidlardan biri Hoji Muin Shukrullo “Yoshlarg'a murojaat” maqolasida shunday deydi: **“Millatning taraqqiysi aning avvali muntazam maktablaridan boshlanur. Agarda biz dinimizni, millatimizni yaxshi ko'rub, muhofaza qilmoqchi bo'lsak, avval saodat eshigi bo'lgan maktabimizni zamong'a muvofiq isloh qilish kerak”**. Bu fikrlar bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Jadidlarning “ta'lim orqali milliy uyg'onish” g'oyasi bugungi ta'lim islohotlarining asosiy mazmunini tashkil etadi.

Uchinchidan, Yangi O'zbekistonda davlat va jamiyat boshqaruvi ochiqlik, jamoatchilik nazorati, inson huquqlari, parlament va mahalla institutlarini kuchaytirish bilan tavsiflanadi. Jadidlar ham jamiyatda faol fuqarolik munosabatlari va jamiyat manfaatiga xizmat qiluvchi davlat modelini orzu qilgan edilar.

Jadidlarning Turkiston muxtoriyatini tuzish bo'yicha eng mashhur dasturi – “Turk adami markaziyat (*federalchilar*) firqasi”ning maromnomasi”da bu g'oyalar o'z aksini topgan. **Taniqli jadidshunos olim Boybo'ta Do'storayevning ilmiy tadqiqotlarida ular quyidagicha sharhlangan:** *“Firqa o'z maromnomasida ilgari surgan jamiyat tizimi demokratik bo'lishi ko'zda tutilgandi. Bu, ayniqsa, maromnomadagi “Muxtoriyatli qit'alardagi ahliyat (fuqarolik) huquqi” qismida yorqin ko'zga tashlanadi. Unda aholi qaysi din va qaysi mazhabda bo'lishidan qat'i nazar, qonun oldida tengligi: fuqarolarga chin ma'nosi-la vijdon erkinligi berilishi, birona din va mazhab hukumat tomonidan boshqalaridan ustun qo'yilmasligi; har bir fuqaro o'z fikrini aytish, matbuot yoki boshqa nashr vositalari orqali bayon etish huquqiga egaligi: fuqarolarning yuzaga keladigan muammolarni hal qilish uchun yig'inlar o'tkazish, jamiyatlar tuzish huquqi bo'lishi, buni(ng) uchun “hech kimdan ruxsat so'ramoqqa ehtiyoj yo'qligi”, shaxs erkinligi, oila muhofazasi daxlsiz bo'lishi, tegishli mahkamalarning qarorisiz birona ham fuqaroning uyiga bostirib kirib tintuv o'tkazish, xat va kitoblarini tekshirish mumkin emasligi kabi moddalar aks etgan”*.

Tan olish kerakki, bundan 100 yil oldin jadid bobolarimiz tomonidan yaratilgan mazkur hujjatdagi tartib-qoidalarining aksariyati mustaqil O'zbekiston qonunchiligida o'z ifodasini topgan.

To'rtinchidan, “O'zbekiston – 2030” strategiyasining 38-bandida jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash maqsadida mafkuraviy xurujlarga qarshi milliy g'oya asosida birgalikda kurashish, oila, maktab va mahalla hamkorligini mustahkamlash va shu asosda ma'naviy tarbiyaning uzviyligini ta'minlash belgilangan.

Jadid bobolarimizning g'oyaviy qarashlarida ham bu holat o'z aksini topgan. Ular dunyoviy ilm-fanni ulug'lab, taraqqiyotga erishish uchun xalqni ushbu ilmlarni o'rganishga da'vat qilgan bo'lsa-da, asriy milliy qadriyatlar va axloq-odobni himoya qilishni ham unutmagan.

Bu borada ma'rifatparvar bobomiz Cho'lponning quyidagi so'zlari fikrimizning dalilidir: *“Ey qarindoshlar... katta iltimosimiz shuldurki, Ovro'paning mo'dosidan, shishasidan, buzuq axloqidan namuna olmasdan va bunlarga bul jihatdan taqlid qilmasdan, balki ilm, fan, hunar, sanoatga o'xshashlik madaniyatlardan namuna olib, bul jihatdan taqlid qilmoqimiz lozimdur. Ovro'paning mo'dosi va buzuq axloqi sizlarni xonavayron, bewatan, asir-qul qiladur. Bundan saqlaningiz!!!”* (*“Sadoyi Farg'ona” gazetasi, 1914-yil 6-iyun*). Ommaviy madaniyat unsurlari va mafkuraviy xurujlar avj olayotgan hozirgi zamonda ham Cho'lponning

bu so'zlari ogohlik qo'ng'irog'i bo'lib jaranglayveradi.

Beshinchidan, ma'rifatparvarlik islohotlarini amalga oshirish uchun jadidlarga moddiy qo'llab-quvvatlov juda zarur edi. Shu bois ular mamlakat boylarini yurt kelajagi uchun xayriya qilishga undagan: bu borada o'zlari o'rnak ko'rsatib, oshiqcha mol-mulkklarini sotib bo'lsa-da, usuli jadid maktablarini ochgan, yoshlarni xorijga o'qishga yuborgan. Chet elda ilm olib qaytgan millat farzandlari ko'magida o'lkada sanoat va iqtisodiyot tarmoqlari faoliyatini yo'lga qo'yib, iqtisodiy mustaqillikka erishishni ham maqsad qilgan.

Ushbu g'oya “O'zbekiston – 2030” strategiyasida amaliy mazmun bilan yanada boyitilib, barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlash, sanoatning “drayver” sohaslarini rivojlantirish va hududlarning sanoat salohiyatini to'liq ishga solish, milliy iqtisodiyotning eksport salohiyatini kuchaytirishga yo'naltirilgan alohida maqsadlarni amalga oshirish belgilangan.

Oltinchidan, jadid bobolarimiz yurtimizda milliy qo'shin barpo etish orzusida bo'lgan. Xususan, 1917-yili noyabrda Turkiston muxtoriyati e'lon qilingach, o'lkamizda milliy qo'shin safiga yozilish tashviquoti boshlanadi. **1918-yil 17-yanvar kuni Toshkentda “Ishchilar dunyosi” jurnalining 2-sonida G'ulom Zafariyning “Quvvatimiz askardir” maqolasi chop etiladi.** U: *“Himmatparvar turkistonlilar! Biz turkistonlik turk bolalari Muxtoriyat e'lon etdik. Endi Muxtoriyatimiz barqaror o'lsun desak, bizga quvvat lozim. Ul quvvat askarlikdir. Quvvatimiz bo'lgan askarlikka jon-dil ila boqub, qalbimizni unga tuhfa etaylik. Aslo unutmaylik. Och, suvsiz tursak ham boshqa bir narsaga qaramasdan faqat qahramon askarimizni tushunaylik! Zero bu islomiyat, bu turklik, bu millat buning ila yashaydir. Buning ila buyuk bo'ladir. Buning ila shon beradir, buning ila hayot bo'ladir, buning ila muzaffariyatga noil o'lub jahonni titratadir. Buning ila ajdod atomiz bo'lgan fohihlarning, qahramonlarning ruhlarini shod etaylik, moziyimizni xotira keltirib istiqbolimizni ta'yin etaylik”*, deya chorlaydi.

Afsuski, Turkiston muxtoriyati qonga botirildi. Uning mudofaasi uchun jonini tikkan ne-ne yigitlar qoni daryo bo'lib oqdi.

Jadidlarning milliy qo'shin barpo etish orzusi oradan 75 yil o'tib, O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng amalga oshdi. **Mana, bugun kuchli milliy armiyamiz bor. Qahramon askar va ofitserlar yurtimiz tinchligi va xavfsizligini ta'minlab turibdi.**

Zamonaviy avlod jadidlarning jasorati va mafkuraviy merosidan kuch olmoqda. Demak, jadid bobolarimizning tarixiy orzu-umidlari bugun yangi mazmunda ro'yobga chiqmoqda.

Jadidlik – bu faqat tarixiy harakat emas, balki bugungi milliy taraqqiyot strategiyasining ma'naviy-ilmiy asosi. Yangi O'zbekiston o'z islohotlarini amalga oshirar ekan, jadidlarning ta'lim, ma'rifat, iqtisod, jamiyatni zamonaviy asosda yangilash haqidagi g'oyalari yanada mukammal va hayotiy shaklda tatbiq etilmoqda.

Olimjon O'SAROV, Mudofaa vazirining vatanparvarlik targ'iboti, ma'naviy-ma'rifiy ishlar hamda yoshlar masalalari bo'yicha maslahatchisi

Yil sarhisobi

HARBIY TA'LIMNI MUVOFIQLASHTIRISH ZARURATI

An'anaga ko'ra, Mudofaa vazirligi tizimida olib borilayotgan ishlar hamda fuqarolarning murojaatlari bilan ishlash holati, 2025-yil sarhisobi va kelgusida amalga oshirilishi ko'zda tutilgan rejalarning muhokamasini o'z ichiga olgan Senatning Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi majlisi o'tkazildi.



fuqarolarning 89,4 foizi ish bilan ta'minlangan, 385 nafar harbiy xodimga imtiyozli ipoteka kreditlari asosidagi yangi xonadonlar, 178 nafariga esa xizmat uylari ajratilgan.

Jumladan, yakunlanib borayotgan yilning o'tgan davrida fuqarolarning murojaatlari bilan ishlash faoliyati tizimli yo'lga qo'yilishi natijasida jismoniy va yuridik shaxslardan 3 157 ta murojaat kelib tushgan. Shundan 1 222 tasi ijobiy hal etilgan, 1 358 ta murojaatga huquqiy maslahat berilgan va 90 tasi o'rganib chiqilmoqda. Vazirlik tizimida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash bo'limi



aytib o'tildi. "Jasorat maktabi", "Vatan tayanchi" dasturlari orqali qo'lga kiritilgan yutuqlar sarhisob qilindi. "Nuroniy" jamg'armasi Toshkent shahri bo'limi raisi Rustam Kalanov maktabgacha ta'lim muassasalarida harbiylashtirilgan o'quv-mashg'ulot nuqtalari, kompyuterlashtirilgan otish trenajyorlari sonini yanada ko'paytirish, qo'shinlarda xizmat faoliyatini olib borayotgan ofitserlarning huquqiy bilimini oshirish kurslari tashkil etish taklifini bildirgandan so'ng bahs-munozaralar yanada qizg'in tus oldi. Bu takliflar bo'yicha olib borilayotgan ishlar

yuzasidan Mudofaa vazirligi mas'ul ofitserlari raqam va ma'lumotlarni keltirib o'tishdi. Mudofaa vazirligiga birlashtirilgan 14,6 mingdan ziyod "Alohida ishlash talab etiladigan yoshlar" bilan o'tkazilgan profilaktik-tarbiyaviy tadbirlar natijasida, qariyb 3,5 ming yosh muddatidan avval profilaktik hisobdan chiqarilganligi qayd etildi.

2025-yil davomida harbiy xizmatchilarning ijtimoiy himoyasi, fuqarolar murojaati, boshqa sohalarida ham qator muhim ishlar amalga oshirilib, muddatli harbiy xizmatni o'tab, rezervga bo'shatilgan



Majlis yig'ilishida mamlakatimiz Qurolli Kuchlarini yanada rivojlantirish, fuqarolarning harbiy xizmatni o'tashi va mamlakat harbiy xavfsizligini ta'minlashga oid masalalar yuzasidan dolzarb masalalar bo'yicha taklif va mulohazalar ko'rib chiqildi.

Majlis davomida Mudofaa vazirligi mas'ul rahbarlarining ma'ruzasi tinglandi. Shundan so'ng O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurorining birinchi o'rinbosari Qahramon Isroilov, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi boshqarma boshlig'i Nodir Kasimov, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni muvofiqlashtirish bo'lim boshlig'i Ulug'bek Davronovning hisobot ma'ruzalari eshitildi.

Shunisi diqqatga sazovorki, har bir hisobot ma'ruzalarida harbiy ta'limni maktabgacha ta'limdan tortib oliy ta'limgacha bosqichma-bosqich muvofiqlashtirib borish zarurligi



tarkibida joriy yil 1-noyabrdan "Call center" bo'linmasi tashkil etilib, bir oyda kelib tushgan jami 857 ta murojaatning 722 tasi og'zaki hal etilgan, 135 tasi esa yaqin kunlar ichida ijobiy hal etilishi uchun mutaxassislar tomonidan o'rganib chiqilmoqda.

Muhokama yakunida Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasining ko'rib chiqilgan masalalar yuzasidan aniq takliflar aks etgan qarori qabul qilindi.

Qo'mita majlisida qatnashgan kuch tuzilmalari ofitserlari uchun Senat binosi bo'ylab ekskursiya tashkil qilindi.

Senatning Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi raisi Qutbiddin Burxonov 14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni arafasida Kuch tuzilmalari harbiy ta'lim muassasalari kursantlari uchun ham shunday ekskursiya tashkillashtirilishini ta'kidladi.

Asror RO'ZIBOYEV

Mardi maydonlar

MILLIY ARMIYA — ONA YURT

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining "Oltinkon" tog' o'quv bazasida yo'lga qo'yilgan tayyorlov kurslari egniga harbiy libos kiygan, yuragida olovi bor Vatan farzandlari uchun kasbiy muvaffaqiyat qozonish imkonini bermoqda.

Navbatdagi amaliy mashg'ulotlardagi vazifalarni bajarishda harbiy xizmatchilar uchun atrofni qoplagan qalin qor, har tomondan kelib urilayotgan sovuq shamol, muzlagan qoyalar ham to'siq bo'lmadi. Aslida, maqsadi aniq bo'lgan kishi tabiatning har qanday inijligiga va yo'lda uchragan qiyinchiliklarga aslo taslim bo'lmaydi. Aksincha, ana shu lahzada – oxirgi daqiqada qayta kuchga to'ladi, g'alabaga intilaveradi. Agar bu maqsad Vatan himoyasidek sharafiga yo'g'rilgan bo'lsa, unda harakat kutilganidan-da yuqoriroq bo'ladi.

Bulutlar ortiga berkingan baland tog' cho'qqilarida qishin-yozin qizg'in mashg'ulotlar olib boriladi. Yo'riqchilarning ta'kidlashicha, faqat qish mavsumida vazifalar biroz murakkablashadi. Ushbu hududlarda qor qalinligi bir necha metrdan oshadi. Shu sababli tog'li joylarda harbiy xizmatni o'tayotgan

o'g'lonlarning professionallik darajalari tinimsiz mashg'ulotlar va mashaqqatli xizmat mevasi aslida.

Jangovar harakatlar hudud ham, sharoit ham tanlamaydi. Shu boisdan ham yurtga qalqon bo'lishni diliga tukkan azamatlar yer, suv, cho'l va tog' hududlarida doimiy ravishda mashg'ulotlar o'tkazib, o'zlarining jangovar mahorati va kasbiy tayyorgarliklarini



muntazam tarzda oshirib boradi.

Mazkur baza esa aynan mana shu yo'nalishda maxsus jihozlangan, kerakli o'quv joylarga ega, qisqasi xalqaro standartlarga to'liq mos infratuzilmani o'zida mujassam etgani, ayniqsa harbiy xizmatchilarga har tomonlama qo'l kelmoqda.

Bu yerda har yili yuzlab harbiylar tog' sharoitida jangovar harakatlarni olib borish, ekstremal vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish va murakkab relyefda xavfsiz harakatlanish bo'yicha tajribalarini oshiradi.

Aytish kerakki, bazada yil davomida yozgi va qishki tayanch kurslari tashkil etiladi. Shuningdek, boshqa kuch-tuzilma vakillari bilan ham o'quv treninglari olib boriladi. "Tog' to'siqlari yo'lagidan o'tish", "Qoyalarda harakatlanish", "Tog'

daryolaridan o'tish", "Otish tayyorgarligi", "Yashovchanlik tayyorgarligi" va "Taktik tayyorgarlik" kabi 30 ga yaqin o'quv joylarida harbiy xizmatchilar kasbiy mahoratlarini oshiradi.

– Shu kunlarda bazada Sharqiy harbiy okrugga qarashli harbiy qism va muassasalarning harbiy xizmatchilari ishtirokida qishki "Tayanch" kursi o'tkazilmoqda, – deydi kapitan Zayniddin Abdurahmonov. – Billsangiz, o'zgaruvchan ob-havo sharoiti harbiy xizmatchilar uchun nafaqat jismonan, balki ruhiy jihatdan ham sinov bo'ladi. Kurs davomida asosiy e'tibor tog' hududida jangovar harakatlar olib borish uchun muhim bo'lgan harbiy alpinizm, jismoniy va taktik-tibbiy, maxsus-taktik, aloqa tayyorgarligi kabi fanlarini o'zaro bog'lagan holda o'rgatishga alohida e'tibor qaratamiz. Qolaversa, shaxsiy tarkibni tog' hududlarida xavfsiz harakatlanishi, tog' va maxsus anjomlardan to'g'ri, o'rinli foydalanishlari uchun kerakli bilim-ko'nikmalar beriladi. Kurs tinglovchilariga yuklatilgan vazifalarning bajarilishi doimiy

QALQONI, TINCHLIGIMIZ POSBONI!

Kapitan Orifjon MAMAJONOV



bazaning tajribali yo'riqchi serjantlarining e'tibor markazida bo'ladi. Umuman, kursdan o'tgani kelgan har bir harbiy xizmatchiga ayni yo'nalishdagi zamonaviy bilimlar beriladi. Tog' bilan tillashish o'rgatiladi. Chunki bu jarayonlar berilgan topshiriqlarni yaxshi uddalash imkonini beradi.

Mashg'ulotlar bazaning tabiiy relyefi – tik qoyalari, qor bilan qoplangan yo'laklar, past-baland daralar va tor o'zanlar bilan uyg'unlashtirilgan holda olib borilmoqda. Bu esa shaxsiy tarkibga haqiqiy jangovar vaziyatga eng yaqin sharoitda tajriba o'rtirish imkonini beradi.

Tog' tayyorgarligi bo'yicha o'z ko'nikmalarini oshirishga ahd qilgan harbiy xizmatchilar to'liq jangovar ekipirovka bilan uzoq yo'lni bosib o'tib, bir necha soat mobaynida tik qoyalarda vazifalarni ado etdi. Otish tayyorgarligi va taktik tayyorgarlik o'quvlarini olib bordi.

Ko'p marotabalik takroriy mashg'ulotlar mobaynida harakatlar avtomatik tarzda bajarilishgacha yetkaziladi.

– Mamlakatimiz hududining katta qismini tog'lar va tog'oldi

kengliklari tashkil etishini inobatga olsak, qoyalarga chiqib-tushish, bu yerlarda harakatlanish uslubiyatini chuqur o'zlashtirish, ko'nikmalarni mustahkamlash berilgan topshiriqni kutilganidek ado etish imkonini beradi, – deydi kichik serjant Ro'zimuhammad Habibullayev. – Shundan kelib chiqib, harbiy xizmatchilar bilan nazariy va amaliy mashg'ulotlar keng ko'lamda olib boriladi. Yana bir gap. Tog' tayyorgarlik mashg'ulotlarini sinchkovlik bilan kuzatish hamda o'rganish muhim hisoblanadi. O'zi umuman, qoyalarda harakatlanish o'ta murakkab vazifa sanaladi. Ayniqsa, noqulay ob-havo sharoitida berilgan topshiriqlarni muvaffaqiyatli ado etish kishidan katta mas'uliyat talab etadi. Buning uchun matonatli va albatta tajribaga ega bo'lish zarur. Tajribalar esa tinimsiz mashq va mashg'ulotlarda oshiriladi. Kurslarga kelgan harbiy xizmatchilarning aksariyati yo'nalish bo'yicha kerakli bilimga ega bo'lsa, ba'zilarida toqqa chiqish ko'nikmasi yetarli emas. Ana shunday hollarda biz – yo'riqchilar shoshilmay, hammasini, eng arimas bo'lib ko'ringan jihatlarni ham ularga o'rgatamiz. Chunki qoya yo'l qo'yilgan xatoni kechirmaydi. Yerdan toqqa ilk qadamni qo'ydingmi, hammasini to'g'ri, o'rgatilganidek bajarishga majbursan. Bular oltin qoida. Qoidalarni esa buzib bo'lmaydi.

Mashg'ulot rahbarlarining ta'kidlashicha, ayniqsa yog'ingarchilik mavsumlarida vazifalarni ado etish yanayam murakkablashadi. Sababi avvaliga ishonchli ko'ringan qoyalardan bo'rtib turgan tosh va boshqa jismlar kuchli namlik evaziga mo'rtlashadi. Bu esa yurt o'g'lonlaridan yanada diqqatli bo'lishni, ishonchli harakat qilishni talab etadi.

Qisqasi, mazkur bazada yaratilgan sharoit va imkoniyatlar harbiy xizmatchilarning tog' va tog'oldi hududlarida harakatlanish, berilgan topshiriqlarni ado etish borasidagi mahoratlarini yuksaltirishga chin ma'noda xizmat qilmoqda.

Aytgancha, mashg'ulotlarni ko'kdagi burgutlar ham ko'rib-kuzatib boradi. Xuddi ular singari o'z makonini – uyini himoya qilishi go'yo bizning azamatlar – Vatan farzandlaridek yurakdan mas'uliyatni his etib, xizmat qiladi. Chunki asl farzand yurt ishqida hamisha bedor va sergak bo'ladi. Ha, o'sha qanotlarini keng yoyib, bulutlarni uchirib borayotgan shamollarni-da ortda qoldirayotgan burgutlardek.

Kapitan Shohrux SAIDOV,
“Vatanparvar”

Xalq va armiya – bir tan-u bir jon!

HISOBOT VA KELGUSI REJALAR MUHOKAMASI



Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi tashkil etilgan kundan boshlab “Xalq va armiya – bir tan-u bir jon!” degan ezgu g‘oyani amalda ro‘yobga chiqarish yo‘lida samarali faoliyat olib bormoqda. Bugungi kunga kelib esa kengash xalqimiz bilan milliy armiyamiz o‘rtasidagi uzviy aloqani, o‘zaro ishonch va hamjihatlikni yanada mustahkamlashda muhim o‘rin tutmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti Situatsion markazida Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashining yil yakuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 34 yilligi va Vatan himoyachilari kuni bayramiga tayyorgarlik ko‘rish, uni yuqori saviyada o‘tkazishda kengash a‘zolarining ishtiroki

masalalariga bag‘ishlangan videoselekt yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi.

Unda Jamoatchilik kengashi va uning hududiy bo‘linmalari a‘zolari, ishchi organi rahbarlari va yetakchi mutaxassislar, harbiy okruglar qo‘shinlari qo‘mondonlarining tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bo‘yicha o‘rinbosarlari ishtirok etdi.

Yig‘ilishda kun tartibiga muvofiq, yil davomida Jamoatchilik kengashi va hududiy bo‘linmalari tomonidan nizom hamda yillik reja asosida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan amalga oshirilgan ishlarning yakuniy masalalari ko‘rib chiqildi. Shuningdek, Mudofaa vazirligi tizimida ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini muddatli harbiy xizmatga chaqirish hamda safarbarlik chaqiruvi rezervi xizmatiga olish tadbirlarini tashkillashtirish, sohani raqamlashtirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan tizimli mexanizmlar hamda Jamoatchilik kengashining kelgusi yil ish faoliyati rejasiga taklif va tavsiyalar berish bilan bog‘liq fikr-mulohazalar tinglandi. Kun tartibidagi

masalalar yuzasidan taklif va tavsiyalar o‘rganilib, tegishli qarorlar qabul qilindi.

– Sarhisob pallasining yaxshi tomoni yil davomida qilingan ishlarimizga baho berish imkoni bo‘ladi, – deydi Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi raisi Iqbol Mirzo. – Biz doimo faoliyatimizni tanqidiy ruhda o‘rganamiz. Chunki rivojlanishni istasak, hammasi zo‘r bo‘ldi deyishga haqqimiz yo‘q. Yutuq ham, kamchiliklar ham o‘zimizniki. Aytib o‘tish kerak, galdagi yig‘ilishimiz ham tanqidiy ruhda o‘tkazildi. Bugungi kunda dunyoda bo‘layotgan o‘zgarishlar bizni hushyorlikka, sergaklikka tortmoqda. Zamon yoshlarni vatanparvar bo‘lib tarbiyalashga, ularni to‘g‘ri yo‘lga solishga ogohlik qo‘ng‘irog‘i bo‘lib chalinmoqda. Zero tahlilali vaziyat zamirida shuncha qilinayotgan islohotlar taqdiri, unib-o‘tib kelayotgan yosh avlod vakillarimizning kelajagi turibdi.

Ta’kidlash lozim, bugungi kunda armiyamiz nafaqat tashqi ko‘rinish bilan, balki ma‘naviy tomonlama ham butunlay boshqacha qiyofa aks etib bormoqda. Eng asosiysi, armiya va xalq o‘rtasida “Xalq va armiya – bir tan-u bir jon” degan tushuncha shakllandi. Mana

shulardan kelib chiqib, milliy armiyamiz bir yil ichida qanday yuksaldi, degan savolni o‘rtaga qo‘ygan holda, yaqinlashib kelayotgan 14-yanvar – Vatan himoyachilari kunini Yangi O‘zbekistonimizning mavqeyiga munosib tarzda o‘tkazishimiz kerak.

**Sherzod EGAMBERDIYEV,
“Vatanparvar”**



Xalq Konstitutsiyasi

BU AZIZ VATANDA ULLUG'DIR INSON

2023-yilning 30-aprel kuni mamlakatimiz tarixida yangi bosqichni boshlab bergan muhim sana sifatida muhrlandi. Aynan ushbu sanada “Konstitutsiya o'zimizniki!” va “Men befarq emasman!” kabi shiorlar ostida umumxalq referendumini o'tkazildi. Bu siyosiy jarayon mamlakatimizda inson haq-huquqlariga e'tibor keng ko'lamda qanot yozib jamiyat hayotida ustuvor ahamiyat kasb etayotganidan dalolat. Aslida xalqimizning irodasiga tayanib, ularning erkin fikri va ishtiroki asosida o'tkazilgan mazkur referendum jarayonidan so'ng deyarli yangilangan, qaytadan yangi qon quyilgan Bosh qomusimiz chin ma'noda xalq Konstitutsiyasi bo'ldi.

Savol tug'iladi, nega aynan xalq Konstitutsiyasi, boisi unda aksariyat fuqarolar, o'zini mamlakatimiz siyosatida kamarbasta bo'lishga undayotgan huquq faollari, umuman mamlakat rivojiga befarq bo'lmagan har bir odam faollik bilan ishtirok etishga mas'uliyat sezdi va bu yurtimizning keyingi ko'p yillik islohotlarida barqarorlik va ustuvorlik kasb etishiga bevosita hamfikir bo'la oldi.

Ushbu amalga oshirilgan keng qamrovli referendumning ijobiy natijalari o'laroq, 2023-yil 1-may sanasidan kuchga kirgan “Yangi O'zbekiston Konstitutsiyasi” endilikda 6 bob, 27 bob va 155 ta moddadan iborat bo'lishi nazarda tutildi. Ma'lumotlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, bunga qadar 1992-yildan buyon Konstitutsiyamizga jami 15 marta o'zgartirish kiritilgan edi. Bu safar esa o'zgarishlar ko'lami kattaligi sabab, hujjatning yangi tahriri qabul qilindi. Yangilanish natijasida, Bosh qomusdagi moddalar soni 128 tadan 155 taga, undagi normalar esa 275 tadan 434 taga oshdi. Umuman, rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, Konstitutsiyamiz 65 foizga yangilangan matbuot nashrlarida mutaxassislar tomonidan tahlil qilindi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmatini va huquqlarining kafolatidir. Bu esa o'z-o'zidan bu galgi Konstitutsiyada chinakam ma'noda insonlarning haq-huquqlari, erkin va farovon hayot tamoyillari sezilarli ta'sirga ega bo'lishiga ishora bor. Ayrim moddalarni qiyoslaydigan bo'lsak, Konstitutsiyaning 1-moddasida “O'zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat” ekanini qayd etilgan.

Ko'rinib turibdiki, o'zini ijtimoiy davlat deb e'lon qilish degani, bu har bir fuqarosiga munosib turmush kechirishi uchun shart-sharoit yaratish majburiyati davlatimiz zimmasida. Bu esa ijtimoiy adolat tamoyillari asosida taqsimlash, jamiyatda kuchli tabaqalanish avj olishiga yo'l qo'ymaslik, eng zaif qatlamlar uchun ham sifatli ta'lim va tibbiyot kafolatlanishi, samarali ijtimoiy himoya dasturlari ishlashi, imkoniyati cheklangan va qo'llovga muhtoj fuqarolarni qo'llab-quvvatlash, adolatli mehnat qonunchiligi va jozibador pensiya tizimi kabilarni anglatadi.

Umumiy ma'noda aytadigan bo'lsak, kambag'alligi mavjud oilaning bolalarida ham sog'-salomat o'sib-ulg'ayib, yaxshi ta'lim olib, farovonlikka erishish imkoniyati bo'lishi kerakligiga ishora qoldirilgan. Ushbu maqolaning muallifi sifatida, alohida e'tiborimni tortgan bir jihat “Inson va fuqaroning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari” deb nomlangan ikkinchi bo'lim V bob tarkibidagi 20-moddaning beshinchi bandida keltirib o'tilganidir. Inson bilan davlat organlarining o'zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga talqin etiladi. E'tibor qilyapsizmi, barcha noaniqliklar – inson foydasiga. Endilikda, qonunchilikda aniq belgilab qo'yilmagan masalalarda ziddiyat yuzaga kelsa, masala davlat emas, inson foydasiga hal etiladi.

Bu esa O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev tomonidan bot-bot takrorlanib kelinayotgan xalqimizga xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilashda “Xalq davlat idoralariga emas, davlat xalqqa xizmat qilishi shart va lozim” ekanini

qat'iyalashtiradi. Bundan tashqari meni qanoatlantirgan yana bir jihat Qomusimizda o'qituvchilarga alohida e'tibor qaratilgani va bir moddaning ularga bag'ishlangani bo'ldi. Vaholanki, ta'limdan ayro jamiyat, tanazzulga yuz tutishi ko'hna bitiklarda ham tilga olingan. Hammamizga ma'lumki, oxirgi vaqtlarda ustozlarga nisbatan imkoniyatlarning cheklanganligi va ularni jamoat ishlariga ko'p jalb qilish holatlariga duch kelganimiz bor gap.

Muhtaram Yurtboshimizning takliflari hamda xalqimizning yakdil qarorlari asnosida ishlab chiqilgan yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizga o'qituvchilar haqida ikki baddan iborat modda qo'shildi. 52-moddada “O'zbekiston Respublikasida o'qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog'lom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma'naviy va madaniy salohiyatini saqlash va boyitishning asosi sifatida e'tirof etiladi. Davlat o'qituvchilarning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o'sishi to'g'risida g'amxo'rlik qiladi”. Bu esa ustozlar huquq sohasi vakili bo'lmagan, lekin oliy qonunda alohida tilga olingan yagona kasb egalariga aylana olinganining yaqqol isbotidir.

Endilikda jamiyatimiz rivojida ta'limning ramziy “huquqbon”lari uchun alohida modda va unda barchasi davlat himoyasida ekanini qayd qilingan.

Maqola davomida biz ayrim jihatlariga to'xtalishga urindik. Aslida esa, bu haqda qanchadan qancha tahliliy fikr-mulohazalar yuritish mumkin.

Eng muhim jihati, yurtimiz hayotida amaliy ahamiyat kasb etgan jarayonlarning nazariy emas, amaliy jihatdan amalga oshishi, ijtimoiy faollikda o'ziga xos o'rin tutishi va xalq mavqeyining, oddiy odamlarning ham huquqlari davlat darajasida himoyalashiga kishilarning ishonchi borligi, endilikda ertamizning bugunimizdan yaxshi bo'lishi borasida xavotirga o'rin yo'qligi, haq-huquqlarimizning yaxshilanishi davlat tomonidan yaratilayotgan imkoniyatlarning xolis va xilma-xilligidir.

Bir so'z bilan aytadigan bo'lsak, bu aziz Vatanda ulug'dir inson. Mana shu ibora kishi ko'nglini xotirjamlikka undaydi.

Fuzayl YUSUPOV,
Harbiy xavfsizlik va mudofaa
universitetining
Harbiy aviatsiya instituti
o'qituvchisi



ONA ALLASIDAN BOSHLANGAN TUYG'U

Joriy yilning 15-dekabr sanasidan “Milliy armiya – ona yurt qalqoni, tinchligimiz posboni!” shiori ostida “Vatanparvarlik oyligi”ga start berilgandi. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilgani va Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan respublikamizning barcha hududlarida ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar boshlab yuborildi. Harbiy qismlar, davlat tashkilotlari, muassasalar, bilim dargohlarida, hatto ijtimoiy tarmoqlarda ham vatanparvarlik shukhi har doimgidan-da keng qamrovda, rang-barang aks etmoqda.

Oradan bir kun o‘tib, voqealar tez rivojlanib ketishini kutmagandim. “Facebook” ijtimoiy tarmog‘ida havaskor yozuvchi Abdulla Omon tomonidan qo‘yilgan post barcha yurtdoshlarimizni “Vatanparvarlik oyligi”ga chorlovchi chaqiriqlardan biri bo‘ldi, desam, adashmayman. Abdulla Omon havaskor yozuvchi sifatida qalam tebratib kelayotgan ijodkorlardan biri bo‘lishiga qaramay, o‘z o‘quvchilariga ega. Hajviy hikoyalari “Mushtum” jurnali, “Darakchi”, “Bekajon” kabi gazetalarda chop etilgan. “Qashshoq vatanparvar bo‘lishdan bosh tort!”, “Ukamning laqabi “palakat” edi”, “Erga qazilgan choh”, “Bajarilgan va‘da”, “To‘y ko‘ylagi”, “Bir dona gugurt”, “Qahramon qiz semiz bo‘lsa aybmi?” kabi hikoyalari “Facebook”dagi sahifasiga joylagan.

Xullas, o‘z uslubiga ega ijodkor. Quyida uning “Facebook” ijtimoiy tarmog‘idagi o‘sha posti, postga yozilgan izohlar va uning shaxsiy hayotiga oid ma‘lumotlar bilan sizlarni ham tanishtirishni lozim topdik:

“Aynan mana shu klip sababli harbiy xizmatga menda juda katta qiziqish uyg‘ongan. Harbiy xizmat esa meni vatanparvar qilib tarbiyaladi. Hayotimda qilgan eng to‘g‘ri qarorim harbiy xizmatni o‘tash haqidagisi ekaniga ishonaman va har bir yigit kishi bu marradan o‘tishi shart, deb bilaman!”

Klip: Ozoda Nursaidova, “Asrasin”. Baxa Tallibayev:

Eh, yoshlik! Bu klipda suratga tushganlarning barchasi hozir nafaqada. Eng oxiri Xurshid nafaqaga chiqdi. O‘sha paytlar klipning 24 yildan so‘ng ham shunchalik ta’sirli bo‘lishiga ishonmagandim...

A‘loxo‘ja Tursunxo‘jayev:

Vatanimiz tinch, osmonimiz musaffo, sarhadlarimiz daxlsiz bo‘lsin. Yurtimizga ko‘z tegmasin. Vatanimizni qo‘riqlayotgan harbiylarimiz sog‘ bo‘lsin.

Shahlo Abdumuminova:

Qat’iy bir fikrni aytaman. Aynan shu qat’iyat ba’zi yigitlarda yetishmayotgandek tuyuladi, menga. Harbiylik – hayotim mazmuni! Harbiy xizmatda bo‘lish yigitlarni toblaydi, tartib-intizom, mas’uliyat hamda oilaga, Vatanga muhabbat hissini uyg‘otadi. Eng avvalo, kelajak avlodni hayotga to‘g‘ri yo‘naltirish asosiy rol o‘ynashini unutmashligimiz kerak.

Qilich Ganiyev:

Shu klip hozirgi seriallardan zo‘r.

Alisher Kasimov:

Yaxshi qo‘shiq, yaxshi klip... Sharaffi burchni o‘tashning chiroyli chorlovi bo‘lgan.

Normurod Mamanov:

Harbiy xizmatning birinchi oyi biroz qiyinroq kechadi. Keyin esa xizmatdoshlar bilan bir tan-u bir jon bo‘lib ketasan. Uyga ketar chog‘i qadrdonlar bilan xayrlashish

naqadar og‘ir ekanini aytmay qo‘yaqalay. Muddatli harbiy xizmat erkak kishini har tomonlama sinovdan o‘tkazadi. Vatanparvarlik, tinchlik qadri, tartib-intizom, sabr-toqat. Xullas, hayotning eng go‘zal ustozi.

Nodir Karimov:

2001-yillar xizmat davrida rosa eshitar edik.

Gavhar Suyunova:

Mardlar qo‘riqlaydi, Vatanni.

Qahramon Jalilov:

Shunaqa kliplar juda ko‘p olinishi shart. Yosh avlod uchun eng zo‘r motivatsiya bo‘ladi. Shuningdek, muddatli harbiy xizmatni majburiy ikki yillik qilish kerak. Chunki armiya yigitlarimizni haqiqiy erkak qilib tarbiyalaydigan maskandir.

Ma‘lumot uchun: Abdulla Omon

1988-yil 11-dekabrda Surxondaryo viloyati, Oltinsoy tumanida tug‘ilgan. Ma‘lumoti oliy. Toshkent axborot texnologiyalari universitetining televideniye, radioaloqa va radioeshittirish muhandisi yo‘nalishini tugatgan.

Havaskor yozuvchi. Hikoyalarini “Facebook”dagi shaxsiy sahifasida e‘lon qilib boradi. Haqiqiy vatanparvar yigit. Buni “Facebook” sahifasidagi Amir Temur bobomizning rasmi va hilpirab turgan O‘zbekiston bayrog‘idan bilib olsa ham bo‘ladi. Qisqa qilib aytganda, o‘zbekligidan doim faxrlanib yuradigan yurt o‘g‘loni!

HARBIY XIZMAT VA HAQIQIY VATANPARVARLIK HAQIDAGI HIKOYAM

Kollejni tamomlaganimdan so‘ng ko‘pgina tengdoshlarim singari ishsizlik girdobiga tushib qoldim. O‘sha paytlar men tugatgan, ya’ni kompyuter injenerligi yo‘nalishi bo‘yicha chekka qishloq tugul, hatto tuman markazlarida ham ish topish mushkul bo‘lib, hozirda arzimasa matoh hisoblanib qolgan kompyuter qurilmasini hokimyat va bir nechta bank filiallaridagina uchratish mumkin edi, xolos.

“Endi nima qilasan?” Otam tomonidan berilgan bu savolga javob topa olmaslik juda uyatli edi. To‘g‘ri-da, o‘g‘liga chekka qishloqdan tuman markaziga borib o‘qish uchun sharoit yaratib bergan va o‘qishni tamomlaganidan so‘ng yaxshiroq ishga joylashishidan umid qilgan otaning bunday savol berishga to‘la haqqi bor edi. Javob bera olmadim. Menga o‘ziga ishongandek insonning qarshisida boshim egildi.

Oldimda ikki yo‘l qolgandi: birinchisi, so‘loqmondek, bundan keyin ham oilasining qaramog‘ida yashaydigan “parazit” o‘g‘il bo‘lib qolish. Ikkinchisi esa el qatori, shu jumladan amakimlar singari musofirlikda mardikorlik qilish uchun

yo‘l olish. Men ikkinchi yo‘lni tanladim. Bu qarorim bilan oilamga oz bo‘lsa-da foydam tegar deb o‘ylagandim. Hatto o‘sha chet eldagi amakim tomonidan meni kuzda o‘z yoniga chaqirib olish, ish bilan ta’minlash va’dasi ham berildi. Ammo bu va‘da avvaliga kuzdan qishga, keyinchalik esa qishdan bahorga surildi. Bundan toqatsizlanib, telefon orqali amakimni qistovga olaverganimdan so‘ng yoniga chaqirmayotganining sababini ochiqdadi:

– Jijan, seenen bug‘doyrangsani! Bu

yerdagi oq-sariq millatning orasida yaqqol sezilasani. Uzi, seni bu yerga chaqirganimdan so‘ng har kunimni politsiya idorasida o‘tkaza olmayman. Shuning uchun o‘sha yerdan biror ish top. Hech bo‘lmasa, mol boq!

Bu gapni eshitganimdan so‘ng amakimga ortiqcha savol bermadim. Qaysarlik qilmadim. Ko‘nglim og‘riganini sezdimadim. Yana jimgina hech kimligim tomon quladim. O‘rgimchak to‘ridek ingichka umid ham uzildi.

Oradan o‘tgan to‘rt-besh oy davomida yana ish izlamagan joyim qolmadi. O‘qishni davom ettirish haqida gap-so‘z ham bo‘lishi mumkin emasdi. To‘g‘rirog‘i o‘qish haqida gap ochib, otamning bitmagan yarasini tirnashni istamasdim. Har safar qishloqqa kelsa qo‘y so‘yib kutib olinadigan shahardagi o‘sha “mashhur” qarindosh ham muammoni eshitgach, biz tomondan qilinadigan birorta qo‘ng‘iroqni ko‘tarmay qo‘ydi.

Shunday kunlarning birida omadim keldi shekilli, hech kutmagan joydan yaxshi xabar keldi. Qurilishda, asosan qurilishdan keyingi pardozlash, ta’mirlash va shunga o‘xshash ishlarni qilib yuradigan bir ammayvachcham bor edi. O‘sha akam otamga qo‘ng‘iroq qilib, bir o‘ziga bosh usta tomonidan yuklatilgan ishlar og‘irlik qilayotganini aytib, meni shogirdlikka berishini so‘radi va men o‘sha kundan boshlab shogird sifatida qurilish ishlariga sho‘ng‘ib ketdim. Faqat kelajakdagi buyuk orzularim shu g‘isht va sement orasiga qorishib ketganidan afsuslanardim xolos.

Shu alfozda ishlar yurar ekanman, bir safar harbiydan nafaqaga chiqqan kishining uyini ta’mirlashga to‘g‘ri keldi. Ish kamida uch-to‘rt oylik edi va tabiiyki uzoq qishloqdan shaharga ish izlab borgan va yotishga tayin joyi bo‘lmagan bizdek ustalar o‘sha harbiyning chala bitgan hovlisiga yotib ishlaydigan bo‘ldik.

Bir kuni shunday vaziyat bo‘ldi, bosh ustamiz uyiga, yonimdagilar ko‘chaga chiqib ketib, o‘sha nafaqadagi harbiy kishi bilan yolg‘iz qoldik. Uy egasi televizor ko‘rib o‘tirar, unda Ozoda Nursaidovaning o‘sha mashhur harbiylar hayotiga atab kuylagan “Asrasin” klipi ko‘rsatilayotgandi. Qo‘limdagi ishni tashlab, televizorga tikilib qolibman shekilli, meni zimdan kuzatib turgan uy egasi shunday dedi:

– Shunday bo‘y-bastli, navqiron yigit bo‘la turib, nega quruvchi bo‘lib yuribsan? Eh, qaniydi, sening yoshingda bo‘lib qolsam. Qayta armiyaga borardim! Armiya asl yigitlarning joyi! Maslahatim haliyam kech emas, mana bu ishlaringni yig‘ishtirginda, armiyaga jo‘na. Mana meni aytdi deysan, bu qaroringdan keyin afsuslanmaysan!

O‘sha kuni men u kishidan harbiylik, armiya safida xizmat qilish, uning zavqi va sharafi haqida ko‘pgina ma‘lumotlarni bilib oldim. Shundan so‘ng Vatan oldidagi yigitlik burchimni o‘tashga qaror qildim. Qishloqqa qaytib, harbiy xizmatga ketish uchun hujjatlarimni to‘plashga kirishib ketdim.

Surxondaryoning olis qishlog‘idan Termizdagi harbiy komissiyaga kelib ketish, o‘sha paytda ancha muammo tug‘dirishiga qaramay, maqsadimdan qaytmadim. Qish mavsumida qorong‘igacha cho‘zilgan komissiya tekshiruvlaridan so‘ng bizni avtobusda Termizdan tuman mudofaa ishlari bo‘limiga olib kelgan. Tunashga joy yo‘qligidan, ba’zida shu yerda qolib ketgan paytlar ham bo‘lgan. Shunga o‘xshash qiyinchiliklarni yengib o‘tganimdan so‘ng Samarqandga Chegara qo‘shinlari harbiy qismiga jo‘natildim.

Aynan chegara qo‘shinlarida xizmat qilish baxtiga muayassar bo‘lganimni omadim deb bilaman. Tan olib aytishim kerakki, harbiy xizmatga kelgunimcha men uchun Vatan adabiyot darsida chiroyli qilib aytib beriladigan she’rlardagina esga olingandi. Harbiy xizmat esa uning aslida nima ekanini menga juda chuqur tushuntirdi. Chaqaloqligimda onamning allasi bilan quloqlarimga quyilgan ona zaminga bo‘lgan sadoqat tuyg‘usi borlig‘imda bo‘y cho‘zgandek gavdalandi.

Qurol bilan ishlash bo‘yicha maxsus tayyorgarlikdan o‘tib, birinchi bor Vatanim sarhadlarini qo‘riqlash uchun xizmatga chiqishimdan oldin, jangovar tayyorgarlik bo‘yicha mas’ul bo‘lgan serjantimizning o‘g‘tlari bir umrga yodimdan chiqmaydi:

“Askar, meni diqqat bilan eshit!

Sen bugun O‘zbekiston chegarasini qo‘riqlashga chiqvapsan. Hech qachon unutm, oldingda qo‘shni davlat va chegara, ortingda Vatan bor! Vatan ichkarisida esa ota-onang, opa-singling, aka-ukang va sevgan qizingga qo‘shilib butun xalqing, millat yashaydi. Endi o‘zing bir o‘ylab ko‘r, sening mas’uliyatsizliging sababli, g‘araz niyatda chegarani buzib o‘tadigan dushmanlar otangni o‘ldirsa, onangni urib mayib qilsa, opa-singlingni xo‘rlab, aka-ukangni otsa, millatningni qul qilishga bel bog‘lasa, bularga chiday olasanmi?! Erkak bo‘lib ularni himoya qila olmaganingdan ko‘ra o‘lganing yaxshi emasmi? Mana shu gaplarimni qulog‘ingga quyib ol va chegarani qo‘riqlashga chiqqaningda va ko‘zingni har safar mudroq bosganida bularni qayta-qayta esla!”

Bu gap menga o‘qdan ham kuchli ta’sir qildi. Shundan so‘ng to xizmatni yakunlagunimcha chegarani qo‘riqlashga chiqqanimda ko‘zlarimga zarracha uyqu kelmadi!

Harbiy xizmatdan so‘ng ishlarim yurishgandan yurishib ketdi. Avval universitet, keyin yaxshi ish va namunali oila! Ammo serjantimizning o‘sha gapi haliyam yodimda. Har safar Vatan haqida gap ketsa, yurtimga g‘araz niyatda qadam bosgan, millatdoshlarimga tahdid qilishga uringan shaxslar, uyushmalar haqida o‘qib qolsam, qonim ko‘pirib ketadigan bo‘ldim. Shuning uchun Vatanni himoya qilish bo‘yicha chaqiriq yangrasa, bunga “Labbay” deb javob qaytarishga doim shayman!

Asror RO‘ZIBOYEV
tayyorladi.



Chegara qo'shinlarida



MATONAT VA BILIM MASKANI!

Ayni kunlarda mamlakatimiz bo'ylab keng miqyosda o'tkazilayotgan "Vatanparvarlik oyligi" doirasida Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari harbiy qism va bo'linmalari tomonidan yoshlarni yurtga sadoqatli, milliy qadriyat va an'alarimizga hurmat ruhida tarbiyalashga xizmat qiluvchi turli ma'naviy tadbirlar, davra suhbatlari, uch avlod uchrashuvi, "Jasorat" darslari hamda ko'rik-tanlov va musobaqalar tashkil etilmoqda.

Toshkent viloyati Ohangaron tumanidagi harbiy qism mezbonlik qilgan ana shunday tadbirlardan biri davomida sarhadlarimiz himoyachilari va yoshlar o'rtasida kechgan samimiy muloqotdan so'ng ertamiz egalari uchun qurol-aslaha va harbiy texnikalar namoyishi o'tkazilib, ularning qo'llanilishiga oid ko'plab qiziqarli ma'lumotlar berib o'tildi. Xizmat iti ishtirokida amalga oshirilgan ko'rgazmali chiqishlar yig'ilganlarda katta taassurot qoldirdi.

Toshkent tumanining 3-umumta'lim maktabida bo'lib o'tgan tadbir ko'tarinki ruhda tashkil etilib, dastlab Vatanimiz sarhadlari himoyasini ta'minlashda ko'p yillar davomida xizmat qilgan faxriylar tomonidan yoshlar uchun mahorat darslari o'tkazildi. Shundan so'ng kelajagimiz bunyodkorlari tomonidan vatanparvarlik, yurtga sadoqat va mehr-oqibatni tarannum etuvchi she'rlar, badiiy parchalar hamda sahna ko'rinishlari namoyish etildi.

Tumandagi axborot-resurs markazida "Armiya – jasorat, matonat

va bilim maskani!" shiori ostida o'tkazilgan tadbirida O'zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyidning Vatanga muhabbat va harbiy xizmat sharafiga tarannum etuvchi "Armiya va tarbiya" nomli she'riy kitobi taqdimot qilindi. Unda so'z olganlar milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida yozilgan shu kabi asarlarni mutolaa qilish katta ahamiyatga ega ekani xususida to'xtalib o'tdi. Tadbirida Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Toshkent tumani bo'linmasi rahbari A. Tulakova ham qatnashib, yoshlar va harbiylarga vatanparvarlik ruhidagi kitoblar sovg'a qildi.

Qibray tumanidagi 43-umumta'lim maktabida o'tkazilgan uchrashuv "Mening dadam – Vatan himoyachisi!" deb nomlandi. Unda o'quvchi-yoshlar hamda sarhadlarimiz posbonlarining farzandlari ishtirok etdi. Harbiy xizmatning sharafiga va mas'uliyati, tinchlikning nechog'li buyuk ne'mat ekani haqida so'z yuritilgan ushbu tadbir davomida yoshlar o'z otalarining kasbi bilan cheksiz

faxrlanishi va kelgusida ularga munosib izdosh bo'lishga harakat qilishini to'lqinlanib so'zladi. Shu kuni harbiylar va yoshlar o'rtasida "Zakovat" intellektual o'yini ham tashkil etildi.

Xorazm viloyati Gurlan tumanidagi 45-umumta'lim maktabida bo'lib o'tgan "Jasorat" darsi davomida tinchlik va osoyishtalikning qadri haqida so'z yuritilib, mavzuga oid videolavhalar namoyish etildi. Harbiylar bilan bevosita muloqotga kirishgan yoshlar xizmat jarayoni, kasbiy talablar va harbiy hayot haqida o'zlarini qiziqtirgan ko'plab savollarga javob oldi.

– Bunday uchrashuvlar yoshlar qalbida yurtga muhabbat, uning taqdiri uchun qayg'urish va kelajakda tinchlikning himoyachisi bo'lib voyaga yetishga intilish kabi hislarni oshirishga xizmat qiladi. Zero Vatan himoyasi – bu jasorat, sadoqat va fidoyilikning yorqin namunasi. Bunday yuksak fazilatlarini yoshlar ongiga singdirish esa juda muhim va zarur

masala. Bugungi tadbir davomida ayni shu jihatlarga e'tibor qaratishga harakat qildik deydi, – maktab o'qituvchisi Zarifa Egamova.

Termiz shahridagi "Yosh chegarachilar" harbiy akademik litseyida tashkil etilgan vatanparvarlik tadbirida shahardagi 3-ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilari uchun litsey bo'ylab sayohat tashkil etildi. Ochiq eshiklar kuni doirasida o'tkazilgan uchrashuv davomida yoshlar litseydagi ta'lim yo'nalishlari, o'quvchilarning kun tartibi, yaratilgan shart-sharoit va qulayliklar hamda erishilayotgan natijalar bilan yaqindan tanishish imkoniga ega bo'ldi.

Ta'kidlash joizki, bu kabi keng qamrovli tadbirlar butun mamlakatimiz bo'ylab DXX Chegara qo'shinlariga qarashli harbiy qism va bo'linmalar, shuningdek chegaraoldi hududlardagi umumta'lim maktablarida davom etmoqda.

Mayor F. BOBOJONOVA
DXX Chegara qo'shinlari



Bir qilich tarixi

QUROLBOY DODXOHNING QUROLI

Shonli va boy tarixga ega bo'lgan mamlakatimizda o'z o'tmishi haqida hikoya qiluvchi osoriyotlar, buyumlar juda ko'p. Jumladan, 2016-yili Nurafshonda, *(To'ytepada)* XIX asrda yashab o'tgan Qo'qon xonligining begi Qurolboy dodxohning qilichi topilgani ijtimoiy tarmoqda yoyilgan edi. Taniqli yozuvchi Shukur Jabbor bu qilich to'g'risida o'z sahifasida ma'lumot berar ekan, Qozog'istonning O'zbekistondagi madaniyat markazi vakili Anvar Nashir bilan muzokara olib borganini yozgan. Chunki bu qilich Qozog'iston fuqarosi uyidan topilgan bo'lib, uni hozirgi egalari O'zbekistonga topshirishga tayyor ekanini bildirgan.



BU QILICHNI asrab-avaylab kelayotgan oila shunday xonadon vakillariki, ikki davlat (*O'zbekiston va Qozog'iston*)da ham qarindosh-urug'lari bilan emin-erkin yashadi. Mazkur qilichni mutaxassislariga ko'rsatish uchun bir marta Qozog'istonga olib borib, olib kelgan xolos. Ayni paytda ushbu noyob buyum O'zbekistonda. O'sha vaqtda suhbatlashilganda bu qilich avvaldan O'zbekistonda bo'lgani va bundan keyin ham mamlakatimizda, qarindoshlarinikida qoldirishini bildirgan. Mantiqan o'ylab qaraganda, Qurolboy dodxohning turbati (*maqbarasi*) va u bilan bog'liq xotiralar shu yerda bo'lganidan keyin qilichi ham O'zbekistonda bo'ladi-da.

BIR QIZIQ HOLATNI aytib o'tish joiz. Qurolboy dodxoh ham uning qilichiga egalik qilib turgan zamondosh xonadon vakillari ham, Qozog'istonning O'zbekistondagi madaniyat markazi vakili Anvar Nashir ham o'zlarini qadimiy Qang'li urug'iga mansub ekanini aytishgan. "Qiziq holat" deganimiz, bu turli millat vakillari bitta urug'ga mansubligidir. Ya'ni Qang'li urug'iga mansub odamlar O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston, Turkiya va Vengriyada ham mavjud bo'lib, ular bir yilda bir marta simpozium o'tkazib kelishadi. O'zbekiston hududida qadimiy Qang' davlati bo'lgani haqida ma'lumotlar ko'pligini bilasiz. Etnik tarix mutaxassisi Karim Shoniyozovning ta'kidlashicha, Qang' davlati sharqda Farg'ona (*Davan*), shimoli-sharqda Usun (*Uyshun*) davlatlari, shimoli-g'arbda Sirdaryoning quyi oqimi bilan chegaralangan. Xitoy manbalariga ko'ra, Qang' davlati hududiga Toshkent vohasi, Talas va Chu daryolari vodiysi kirgan. Ayrim davrlarda hozirgi Samarqand, Buxoro, Shahrisabz, Kattaqo'rg'on, Urganch shahri va atroflari ham qaragan bo'lib, chegarasi Amudaryogacha borgan.

"QANG'" YOKI "QANG'LI" deb ataladigan joy nomlari yurtimizda juda ko'p. Yana To'ytepadan pastroqda, Ohangaronga yaqin qishloqlardan birining nomi "Evalak" bo'lib, asli "Evi Iloq" nomidan olingan. "Ev" degan so'zni turkiy xalqlar uy, markaz, poytaxt, boshpanaga

nisbatan aytishadi. Shu ma'noda "Evi Iloq" – bu "Iloq markazi", "Iloq poytaxti" ma'nosini beradi. Iloq – bu O'zbekiston hududida qadimda mavjud bo'lgan davlat. Bularni aytishdan maqsad, hozirda garchi kichkina qishloq nomi bilan atalayotgan bo'lsa ham, o'sha yerda qadimda katta davlat bo'lgani va huda-behuda, ko'r-ko'rona joy nomlarini o'zgartiravermaslikni eslatishdir. Masalan, Namangan viloyatida Kushon deb ataladigan qishloq bor. Yana bu viloyatda Kosonsoy tumani, Qashqadaryoda Koson tumani mavjud. Vaholanki, ilgari Kushon juda katta davlat bo'lgan.

Mavzudan chiqmagan holda aytish lozimki, joy nomlari ham tarixdan so'zlasa, mana shu topilgan qilich ham tariximizdan darak berib turadi. Ushbu qilichning hozirgi egalari bu noyob topilmani hech ikkilanishsiz davlatga topshirishga rozi ekanini aytgan. Balki vaqti kelib, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari davlat muzeyidan nodir eksponat sifatida joy olar.

ENDI DODXOH KIM, qanday lavozim egasi bo'lgani to'g'risida ma'lumot berib o'tsak, foydadan xoli emas. Dodxoh – dodni, ya'ni arzni tinglovchi, fuqarolar shikoyatini eshitib, chora ko'ruvchi lavozim egasidir. Dodxoh Qo'qon xonligi va Buxoro amirligida qal'a boshlig'i, qo'rboshi, qozixona ishlari ustidan nazorat olib boruvchi amaldor, raisi kalon atalgan. Qo'qon xonligida bu mansab amaldorlar ro'yxatida to'qqizinchi o'rinda (*parvonachidan keyin biydan oldin*) turgan. Dodxoh yiliga xon xazinasidan 700 botmon don va 1000 tilla pul olgan. Qo'qon xonligida bir vaqtning o'zida yuzlab dodxohlar bo'lgan. Chunki bilasiz, xonlikning chegarasi hozirgi Rossiya hududi bo'ylab Oltoy, Oqsuv, Qashqar, Yorkend, Xo'tan va yana bir qancha muzofotlarni qamrab olgan. Qo'qon xonligida muayyan bir davrda mingboshilar ham "dodxoh" deb atalgan. "Dodxoh" atamasini o'zbek adiblaridan Muqimiy she'rilarida, Abdulla Qodiriy romanida,


Abdulla Qahhor hikoyasida uchratish mumkin. Bundan tashqari, ayol bo'la turib, dodxoh sifatida qahramonlik ko'rsatib, dong'i chiqqan Qurbonjon dodxoh haqida tarixni ko'pchilik bilsa kerak.

Yuqorida eslatib o'tilgan qilich egalarning aytishicha, Qurolboy dodxoh chor Rossiyasi bosqini davrida Toshkent mudofaasi vaqtida Qo'qon xoni sarkardasi Alimquliga yordamchi bo'lgan. Ko'p qahramonliklar ko'rsatgan. Tarixiy manbalarda Qurolboy dodxoh haqida kam ma'lumot saqlanib qolgan. Biroq unga Nurafshonda (*To'ytepada*) maqbara tiklangan. Shu maqbara yonidagi qabriston ham Qurolboy dodxoh nomi bilan ataladi.

SHU O'RINDA mavzudan biroz chiqish bo'lsa ham, aytib o'tish kerak. "To'ytepa" avval "Tug'tepa", ya'ni bayroq tikilgan tepalik bo'lgan. Shayboniyxon tug'ini, ya'ni bayrog'ini tikkan strategik joy bo'lgan. "Bog'ladi" degan so'zni "boyladi" deb "g'" tovushini "y" affiksi sifatida tiliga moslab olganiday odamlar "tug'tepa"ni "tuytepa", "to'ytepa" deb tiliga moslab ifodalashni boshlagan. To'ytepa ilgari, muayyan davrlarda Nukat (*Navkent–Yangi shahar*), Mingtepa deb atalgan. Nega "Mingtepa" deyilganiga ham asos bor. Chunki To'ytepada bir qancha tepaliklar, do'ngliklar hozir ham saqlanib qolgan. To'ytepaning juda katta shonli tarixi bor. Shuning uchun bizningcha, To'ytepa kabi tarixiy nomlarni almashtirmagan ma'qul.

XULOSA qilib aytganda, bugunga kelib, Qo'qon xonligi uchun xizmat qilgan, qahramonlik ko'rsatgan Qurolboy dodxoh kabi shaxslar haqida tarixchilarimiz tarixiy asarlar yozsalar juda foydali ish qilgan bo'lar edi. Zero bugungi yoshlar bizning shonli tariximizni o'rganib, axloq va ma'naviyatini o'stirib, dunyoqarashini shakllantirishi lozim. Ana shunda kelajagimiz oydin va ishonchli bo'ladi.

Shuhrat JABBOROV,
Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti
Tillar kafedrasi o'qituvchisi



Harbiy ta'lim

Harbiy oliy ta'lim muassasalarida kursantlarning bilim darajasini oshirish masalasi ta'lim jarayonini mazmunan boyitish va uni xizmat faoliyati bilan uzviy bog'lab, dual ta'lim olishni taqozo etadi. Chunki bo'lajak ofitserlarning kasbiy tayyorgarligi faqat nazariy bilimlar bilan chegaralanib qolmasdan, balki real xizmat vaziyatlarida mustaqil va asosli qaror qabul qila olish qobiliyatini ham o'z ichiga oladi. Shu sababli ta'lim jarayonida nazariy bilimlarni amaliy mashg'ulotlar bilan uyg'unlashtirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Ilmiy tadqiqotlarda qayd etilishicha, nazariya va amaliyotning o'zaro bog'liqligi bilimlarning chuqur va barqaror o'zlashtirilishiga xizmat qiladi.

FUNDAMENTAL BILIMLARNI CHUQUR O'RGATISHNING YO'L-YO'RIQLARI

Xususan, taktik tayyorgarlik fanlarini o'qitishda mudofaa yoki hujum sharoitida bo'linmaning harakatlari auditoriyada o'rganilganidan so'ng dala-o'quv mashg'ulotlarida mustahkamlanadi. Bunday yondashuv kursantlarda vaziyatni tezkor baholash, mavjud sharoitdan kelib chiqib qaror qabul qilish hamda buyruqlarni aniq va tushunarli berish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, xizmatga yaqinlashtirilgan mashg'ulotlar kursantlarning bilim saviyasini oshirish bilan birga ularning psixologik barqarorligini ham mustahkamlaydi.

Kursantlar bilimini oshirishda ularning o'quv jarayonidagi faolligini ta'minlash alohida ahamiyat kasb etadi. An'anaviy o'qitish shakllariga nisbatan interfaol metodlardan foydalanish kursantlarni passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiradi. Jumladan, muammoli ta'lim usuli asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar, bahs-munozaralar va guruhli tahlil ishlari kursantlarda tanqidiy fikrlash, muloqot madaniyati va jamoada ishlash ko'nikmalarini shakllantiradi.

Amaliy jihatdan olganda, harbiy boshqaruv fanida favqulodda vaziyatlarda bo'linma bilan aloqa uzilishi kabi holatlar modellashtiriladi. Kursantlar ushbu vaziyatni tahlil qilib, muammoni hal etish bo'yicha turli variantlarni taklif etadi hamda ularning eng maqbulini asoslab beradi. Tajriba shuni ko'rsatadiki, bunday mashg'ulotlar kursantlarda mas'uliyat hissi va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Zamonaviy harbiy ta'lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ham kursantlar bilimini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Elektron o'quv resurslari, test dasturlari, virtual trenajyorlar va simulyatorlar murakkab harbiy texnika hamda jarayonlarni xavfsiz va samarali tarzda o'rganish imkonini beradi. Bu esa bilimlarni mustaqil o'zlashtirish va mustahkamlash jarayonini yanada faollashtiradi.

Real xizmat vaziyatida harbiy texnikani to'g'ri boshqarish katta mas'uliyat talab etadi. Shu bois texnika tuzilishini o'rganishda virtual modellar va simulyatorlardan foydalanish kursantlarning bilimini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mutaxassislar fikriga ko'ra, axborot texnologiyalaridan foydalanish ta'lim jarayonini individuallashtirish imkonini beradi va kursantlarning bilimni o'zlashtirish sur'atini oshiradi.

Kursantlar bilimini oshirishda rag'batlantirish va nazorat tizimini takomillashtirish ham muhim ahamiyatga ega. Bilimlarni baholashda



Suratlar arxividan olindi

shaffof va adolatli mexanizmlarning joriy etilishi kursantlarda mas'uliyat hissini kuchaytiradi. Ilmiy tadqiqot ishlari, fan olimpiadalari va harbiy-amaliy musobaqalarda faol ishtirok etgan kursantlarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish ularning bilim olishga bo'lgan qiziqishini yanada oshiradi.

Mexanika va chizma geometriya fanlari harbiy muhandislik, texnika va qurol-aslaha bilan bog'liq mutaxassisliklar uchun fundamental ahamiyatga ega bo'lib, kursantlarning texnik tafakkuri, fazoviy tasavvuri va tahliliy fikrlashini shakllantiradi.

Ushbu fanlarni chuqur o'zlashtirish bo'lajak ofitserlarning kasbiy tayyorgarligini oshirishga xizmat qiluvchi yo'l-yo'riqlarni sanab o'tamiz:

– Fanlararo uzviylikni ta'minlash. Mexanika va chizma geometriya fanlarini alohida emas, balki o'zaro bog'liq holda o'qitish fundamental bilimlarni mustahkamlaydi. Mexanikadagi kuchlar, momentlar, deformatsiyalar chizma geometriyada fazoviy tasvirlash orqali tushuntirilsa, kursantlarda mavzuni chuqur anglash imkoniyati oshadi. Bunday yondashuv nazariy bilimlarning mantiqiy izchilligini ta'minlaydi.

– Fazoviy tafakkurni rivojlantirish. Chizma geometriya fanini o'qitishda kursantlarning fazoviy tasavvurini rivojlantirish asosiy vazifalardan biridir. Murakkab geometrik shakllarni turli proyeksiyalarda tasvirlash, kesimlar va kesishmalarni aniqlash kursantlarda texnik tafakkurni shakllantiradi. Ushbu ko'nikmalar mexanika masalalarini yechishda ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, kuchlar ta'sirini fazoda to'g'ri tasavvur qilish imkonini beradi.

– Nazariy bilimlarni amaliy masalalar bilan mustahkamlash. Mexanika fanini chuqur o'rganishda nazariy tushunchalarni masalalar yechish orqali mustahkamlash muhim ahamiyatga ega. Kuchlar muvozanati, statika va dinamika qonunlarini real texnik qurilmalar misolida tahlil qilish,

kursantlarda bilimlarni chuqurroq o'zlashtirishga xizmat qiladi. Chizma geometriyada esa chizmalar asosida mexanik holatlarni tahlil qilish fundamental bilimlarni mustahkamlaydi.

– Harbiy-texnik yo'nalish bilan bog'lash. Mexanika va chizma geometriya fanlarini harbiy texnika, qurol tizimlari va muhandislik inshootlari bilan bog'lab o'qitish, kursantlarning fanga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Harbiy texnikaning harakat mexanizmlari, yuklama taqsimoti va konstruktiv elementlarini tahlil qilish orqali kursantlar o'z bilimlarining amaliy ahamiyatini anglay boshlaydi.

– Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish. O'quv jarayonida kompyuter grafikasi, CAD dasturlari va mexanik modellashtirish vositalaridan foydalanish chizma geometriya va mexanika fanlarini o'zlashtirishni yanada samarali qiladi. Uch o'lchamli modellar orqali kuchlarning ta'siri va geometrik shakllarning o'zgarishini ko'rish, kursantlarning mavzuni chuqurroq tushunishiga yordam beradi.

– Mustaqil ishlash va tahliliy yondashuvni rivojlantirish. Fundamental bilimlarni oshirishda kursantlarning mustaqil ishlashi muhim ahamiyatga ega. Murakkab masalalarni mustaqil yechish, chizmalarni tahlil qilish va xatolarni aniqlash kursantlarda mas'uliyat va mustaqil fikrlashni shakllantiradi. O'qituvchi esa bu jarayonda yo'naltiruvchi va maslahat beruvchi rolini bajarishi lozim.

– O'qituvchining metodik yondashuvi. Mexanika va chizma geometriya fanlarini chuqur o'rganishda o'qituvchining metodik mahorati hal qiluvchi ahamiyatga ega. Murakkab tushunchalarni oddiy va mantiqiy izchillikda tushuntirish, mavzularni hayotiy va xizmatga yaqin misollar bilan boyitish kursantlarning bilimni chuqur o'zlashtirishiga xizmat qiladi.

Umumiy xulosa va takliflar. Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, kursantlarning bilimini oshirish murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, u tizimli yondashuvni talab etadi. Nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlash,

interfaol o'qitish metodlarini keng joriy etish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish hamda rag'batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish harbiy ta'lim sifatini oshirishning asosiy yo'nalishlari hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, mexanika va chizma geometriya fanlarini chuqur o'rganish kursantlarning fundamental bilimlarini mustahkamlash, texnik tafakkurini rivojlantirish va kelgusidagi xizmat faoliyatiga puxta tayyorlashda muhim o'rin tutadi. Fanlararo integratsiya, amaliy yondashuv, zamonaviy texnologiyalar va mustaqil ta'limni rivojlantirish orqali kursantlarning bilim saviyasini sezilarli darajada oshirish mumkin.

Shu munosabat bilan quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq:

– o'quv dasturlarini dual ta'lim asosida real xizmat vaziyatlariga maksimal darajada yaqinlashtirish;

– harbiy fanlarni o'qitishda interfaol va muammoli ta'lim metodlarini tizimli ravishda qo'llash;

– fundamental fanlarni o'qitishda, o'quv laboratoriya uskunalari texnika taraqqiyoti holati asosida yangilash, virtual trenajyorlar va simulyatorlar asosida amaliy mashg'ulotlar ulushini oshirish;

– kursantlarning ilmiy va ijodiy faolligini rag'batlantirish mexanizmlarini kuchaytirish;

– pedagog kadrlarning kasbiy va metodik tayyorgarligini muntazam ravishda mamlakatimiz ta'lim talablari asosida oshirib borish.

Mazkur takliflarning amaliyotga joriy etilishi harbiy oliy ta'lim muassasalarida kursantlar bilimini oshirishga, natijada esa har tomonlama yetuk va raqobatbardosh harbiy mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi.

**Farhod MATMURODOV,
Harbiy xavfsizlik va
mudofaa universitetining
Quruqlikdagi qo'shinlar instituti
professori**

Millatparvarlar

XX asrning ilk o'n yilliklari jamiyat hayotida tub burilishlar davri sifatida tarixga kirdi. Sho'ro hukumati tomonidan o'rnatilgan yangi siyosiy rejim qator jabhalarni, xususan ma'naviy-ma'rifiy muhitni ham keskin o'zgartirib yubordi. Bu jarayonda, ayniqsa shoir-yozuvchilar, xalq orasida dong'i chiqqan baxshilardan ham siyosiy targ'ibot vositasi sifatida foydalanildi. Ijod ahlining tili va sozi tushovlandi, ulardan muayyan siyosiy g'oyalarni kuylash, xalq orasida yoyish talab etildi.

QAROQCHIGA AYLANTIRILGAN QO'RBOSHI — “OCHILDOV”



Shu tariqa ulkan iste'dodlar ham birrov sovet choponini kiyib yurishga majbur bo'ldi. Hatto baxshilar ham...

Ergash Jumanbulbul o'g'li zamon taqozosi bilan “Oktabr”, “Sho'ro”, “Qizil” kabi termalarni, “O'rtoq Lenin” dostonini ijro etdi. Po'ltkan shoir “Mardikor”, “Hasan batrak”ni kuyga soldi. Fozil Yo'ldosh o'g'li “Oktabrni qutlayman” termalari, “bosmachilar”ni qoralovchi “Ochil Dov” dostonini yozishga majbur bo'ldi.

Maqolada Turkistonliklar uchun ozodlik kurashchisi, sho'rolar uchun xalq qaroqchisiga aylangan Ochilbek qo'rboshining siyratiga tarixiy manbalar asosida nazar solamiz.

“Ochil Dov” dostonidan iqtibos:

“Oktabr inqilobi bo'lib, Sho'ro hukumati qurilib, ishchi-dehqonlar – ezilgan mehnatkash xalqlar, ozodlikka chiqib yashaydigan zamon bo'lgandan keyin qadimgi amaldor, sipohilar, beklar, qozi, mingboshilar, boylar, mullalar chekka-chekkadan yig'ilib, Sho'ro hukumatinini yo'qotmoqning maslahatini qilib, Sho'ro hukumati qarshi o'tlanib chiqq berdi.

Shu vaqtlar Samarqandning kunchiqar betidan, Qo'shtamg'ali nayman urug'idan Ochil Jo'raboy o'g'li degan chiqib, avvalgi ishi beshta-o'nta bo'lib, necha yerlarni oqshom bosib, olib ketib yurdi. Odamlardan Ochil ekanini bilmay qolganlar hayron qolib, bilganlar Ochil o'zini tanitmasa ham, Ochil, deb gumon qilib, bir xillari hukumatga xabar berib, bir xil kambag'allar hukumatga ham xabar qila olmay, o'zi ushlay olmay: “Bu bosmachi degan balo qaydan chiqdi? Endi yashaymiz, desak, bu baloni bizning ustimizga kim yubordi ekan? Oyog'imizni uzatib uxlay olmasak, topgan-tayanganimizga o'zimiz ega bo'lib, o'z osh-u nonimizni o'zimiz yeyolmasak”, deb yurur.

Parchada Samarqand qo'rboshilarining qo'mondoni Ochilbek haqida so'z bormoqda. O'sha vaqtda xalq qahramonlari bolsheviklar tomonidan “bosmachi” deb ataldi.

Xo'sh, buning qanday ijtimoiy-siyosiy sabablari bor edi?

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, sovet hokimiyati o'z mavqeyini barqaror mustahkamlash yo'lida hech narsadan qaytmadi. Hatto xalq dostonlarida ham sovet g'oyalarini

aks ettirish, bu talab bajarilmagan dostonlarni esa kuylash taqiqlana boshlandi.

Fozil Yo'ldosh o'g'lining ijodiy faoliyatiga bo'lgan keskin aralashuv, uning iste'dodini tuzum manfaatlari yo'lida ishlatishga bo'lgan harakatlar bekor ketmadi. Baxshi zamon mafkurasini tazyiqi ostida badiiy saviyasi sust, siyosiy g'oyalarga to'yingan dostonlarni yaratishga, ijro etishga majbur bo'ldi.

“Ochil Dov” ana shunday siyosiy buyurtma mahsuli sifatida yuzaga keldi. Unda qo'rboshi Ochilbek qatorida Turkiston ozodligi uchun kurashgan buyuk fidoyi Anvar Poshsho va ko'plab ma'rifatli shaxslarning salbiy obrazlari yaratildi.

“Ochil Dov” dostonida ma'rifatli qo'rboshini qaroqchiga aylantirib bergan turli parchalarga guvoh bo'lamiz:

...Kambag'al dehqonlar: “Bu bachchag'ar bosmachi bizning yeb turgan oshimizni, bitta-yarimta oyoq-uloq qilib turgan baytal-saytalimizni olgan bilan to'yarmi? Dunyodor odamlar qoladi, biz – talanamiz”, deb hayron bo'ladi. Boylarga borib: “Biznikini bosmachi bosib ketdi, sizga tegmadimi?” desa, ular: “Miltiq-anjomimiz bor, bizga bosmachi botinolmaydi”, deydi.

...Tatarda Karimqul cho'tir bolalarini to'yi bor. U katta odam. Mulla Hakim sudning uyida to'y bo'layotgandi. Bari elning boylari edi.

Ochilning jo'ralari uning shuhratini elga ovoza qilib, qishloqdan 4-5 odam

jo'natib turadi. Har kun kunduz ozayib, oqshom ko'payib, elni bosib, necha kunlarni o'tkazdi. Bozorchi Jomboyning bozoriga keladigan attor, bazzoz, jallob, choyfurush, shirafurush – jami savdogar-bozorchilarni to'nayverdi. Bozorga ketayotgan tovuqfurush, tuxumfurushni ham qo'ymadi.

...Bir xillar bozorga yaxshi ot minib kelgan. Otini kishanlab, boylab qo'ygan, kalitini xurjunga solib, ostiga bosib o'tirgan. “...Yo o'larsan, yo otingni berarsan” deb miltiqning qo'ndog'i bilan urayotir...

KO'RINADIKI, doston matnida qo'rboshi obrazi xalqqa zulm o'tkazgan, savodsiz va murosasiz shaxs sifatida jonlantiriladi. Biroq Ahmad Zakiy Validiy “Xotiralar”ida mazkur tasvir keskin rad etilib, qo'rboshilar Vatanga sadoqatli, zamona voqeliklarini yaxshi anglaydigan va xalq ozodligi yo'lida kurashgan fidoyi shaxslar sifatida namoyon bo'ladi. Shu jihatdan, dostondagi mafkuraviy-siyosiy talqin bilan Validiy xotiralaridagi tarixiy-badiiy yondashuv o'rtasida qiyosiy o'rganish qo'rboshilar harakati haqidagi haqiqiy manzarani aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

“Ochil Dov” dostonining badiiy saviya jihatidan zaif ekani haqidagi fikr ilmiy adabiyotlarda ham tasdiqlangan. Xususan, Fozil Yo'ldosh o'g'li ijodini maxsus tadqiqot obyekti sifatida o'rgangan T. G'oziboyev mazkur asarning shakl va mazmun jihatidan mukammal emasligini, baxshi o'z imkoniyatlarini to'liq namoyon etolmaganini qayd etadi.

Buni, albatta, shoir ijodiga tashqi mafkuraviy bosimning ta'siri sifatida baholash mumkin.

Ochilbek chindan ham savodsiz va talonchi edimi? Bu savolga “Xotiralar”da aniq javoblar bor. Olim Ochilbek atrofidagi kishilarning nasl-nasabi, ma'lumoti, dunyoqarashi haqida ham qimmatli ma'lumotlarni beradiki, ularni jamlash orqali samarqandlik qo'rboshilarning aqliy salohiyati va bilim darajasiga baho berish imkonini paydo bo'ladi.

Uning ta'kidlashicha, ruslar bosmachilarning barchasini talonchi va bosqinchi sifatida ko'rsatishga uringan. Aslida esa Samarqand viloyatidagi qo'rboshilarning ko'pchiligi Vatanga sadoqatli, fidoyi va zamona voqealaridan yaxshi xabardor shaxslar edi.

AYNIQSA, Validiyning Ochilbek qo'rboshi bilan bevosita yelkadosh bo'lib janglarda qatnashgani va bu voqealarga shaxsan guvohlik bergani qo'rboshilar harakati haqidagi ko'plab biryozlarga va mafkuraviy talqinlarni qayta baholash imkonini yaratadi.

Qo'rboshilarning aql-zakovati, yon-atrofidagi safdoshlarining darajasi “Xotiralar”da to'la namoyon bo'ladi. **Ayrim parchalarni keltiraman:**

“Ochilbekning 1 500 odami bor edi. Yonida Jamiyat vakili sifatida Samarqand viloyatining eng bilimli ziyolilaridan biri, Jamiyat Markaziy Qo'mitasi a'zosi Qori Komil bo'ldi. Ochilbek yonida, shuningdek Samarqand viloyati qoraqalpog'laridan Ochil To'qsoba va Chelak kasabasi ulamosi naslidan Katta Maxdum, Kichik Maxdum degan obro'li kishilar yurdi.

...Shunday qilib, kongressda bosmachi guruhlar rahbarlarining har biri oldiga siyosiy maslahatchi yuborishga qaror qilindi. Samarqand viloyatining bosh qo'rboshisi, naymanlardan bo'lgan Ochilboy yoniga o'zbek ziyolilaridan Qori Komil ismli bir obro'li kishini tayinladik.

...Jizzax atrofida joylashgan Ochilbek guruhi ixtiyorida Niyozbek va Turobbek ismli ikki ziyoli bor edi.

...Ular Samarqandda ruscha o'rta ma'lumot olishgan, kommunistlar



partiyasiga kirgan, militsiya idoralarida rahbarlik vazifalarida ishlagan yoshlar. Ikkovi ham 1916-yildagi qo'zg'olonda ko'p zarar ko'rgan o'zbek urug'laridan.

...Katta Maxdum, Kichik Maxdum degan obro'li kishilar yurdi. Bahrombekka Samarqand yonidagi Pastqishloqdan Hamroqulbek ismli bir kishi yordamchi bo'ldi. U ham Ochilbek singari oriyatli, qahramon, o'qimishli, Samarqand jadidlarining muallimlaridan biri Shokiriyning o'quvchisidir.

USHBU FAKTLAR Samarqand qo'rboshilari rahbari Ochilbek shaxsi atrofida to'plangan kuchlarning ijtimoiy-ma'naviy xususiyatini ochib beradi.

Ochilbek xalq orasida "Ochildov", "Ochil dev" nomi bilan mashhur bo'lgan. Bunday atalishning bir qancha sababi bor. Ulardan eng birinchisi, uning devdek alpqomat, jasur va baquvvat ekani bilan izohlanadi. 1921-yildan boshlab u Turkiston Milliy Birligi ko'rsatmalari asosida faoliyat yuritib, o'z harakatlarini kuchaytirib boradi. Bu vaqtda uning qo'l ostida 4 000–5 000 yigit bo'lgani aytib o'tiladi.

Bu haqda ham Validiy o'z xotiralarida yozib o'tadi:

"Ochilbek nayman o'zbeklarining Qo'shtamg'ali degan joyida tug'ilib o'sgan, o'ttiz sakkiz yoshida, nihoyatda jasur, axloq-odobli, mehr-oqibatli, avvaldan o'ylab ish yuritadigan, halol bir inson. Rossiya va dunyo siyosati to'g'risidagi gazetalarni o'qib fikr qiladi.

Davron Ochil degan g'ayratli, ishning ko'zini biladigan ukasi ham yonida edi.

Tarixchi olim Qahramon Rajabov "Turkiston qo'rboshilari" kitobida turkiyalik tadqiqotchi Ali Bodomchining Ochilbek haqidagi fikrlarini keltirib o'tadi:

"Ochilbek Samarqand va uning tevaragida mustahkam hokimlikka erishgan kuchli bir qo'rboshidir. Samarqand – Zarafshon vodiysi

hududidagi Matcho tog'lari etaklariga qadar bo'lgan joylarda Ochilbek yagona hokim bo'lgan... Kurash boshlashdan avval uzoq muddat Toshkentda bo'lgan, ruschani o'rgangan, jadid maktablari ta'sirida madaniy saviyasini orttirgan... Ochilbek vataniy axloqqa ega, jasur, vazmin tabiatli shaxsiyat sohibidir. Qo'rboshilikni boshlashdan avval u Buxoro amirining amakisi Said Akram To'raning xizmatida bo'lib, askarlikni o'rgangan".

Shunday bo'lishiga qaramay, "Ochil Dov" dostonida qo'rboshilarning no'noqligi jiddiy kulgiga olinib, qizil askarlarning kuchiga yuqori baho beriladi.

Qizil askar zo'rligini bildirdi, Chetdan otishganni otib o'ldirdi.

Xalqqa oralagan ko'pi, ko'zlab otmaydi, Ochil yig'layotir, "bizni o'ldirdi".

"Xotiralar"dan ayonlashadiki, samarqandlik qo'rboshilar va sho'ro askarlari o'rtasida murosaga urinishlar ham bo'lgan. **Bunga shaxsan guvoh bo'lgan Validiy qiziq faktlarni keltirib o'tadi:**

"...Rus armiyasi qo'mondonligi ham ayni shu yo'l bilan bir zobitni jo'natib, Ochilbek bilan gaplashmoqchi ekanini bildirdi. "Xohlasang, borib gaplash", dedi Ochilbek menga. Samarqand qo'mitasining a'zolari esa mening u yerga borishimni xavfli deb hisobladilar.

Uchrashuv Chelak va Kumush tog' qishloqlari orasida bo'lishi kerak. Ikki tomondan ham beshtadan odam kelishi lozim. Maxdumlar deb atalgan bosmachilar gaplashiladigan joyni qo'riqlab, o'rab turadilar, ruslar hujum qilmasalar, ular ham hech kimga tegmaydilar.

Ochilbek bilan Bahrombek mening ixtiyorimga ruscha biladigan Abdulhalim bilan yana bir kishini berishdi.

Muzokaralarni maxdumlar olib borishadi. Men rus zobiti bilan gaplashmayman, o'zimni ruscha bilmagan kishi qilib ko'rsataman. Shunday ham qildik. Zobit jangni to'xtatib, sovetlar bilan kelishinglar, dedi.

Gaplashuvdan natija chiqmadi. Biz ko'rishgan joy tarixda Amir Temur bilan amir Husayn yaqinlari yarash tuzish uchun uchrashgan joydir. Uchrashuv o'sha zamonda ham samara bermagandi. Ruslar shu tarzda ahvolni bilmoqchi bo'lgan edilar, lekin bundan biror natija chiqmasligini o'zlari ochiq ko'rdilar.

"Ochildov"ning o'limi

Tarixchi Qahramon Rajabov manbalarga tayana turib, 1923-yil 10-may kuni Kitob atrofida qizil askarlar bilan kechgan jangda Ochilbek Qo'rboshi mardlarcha halok bo'lgani, uning o'g'li Davron Ochil (1906-yilda tug'ilgan) xorijsa chiqib ketganini yozadi.

O'zbekiston Milliy arxivida qo'rboshining o'limi quyidagicha tasvirlanadi:

"Qarshi viloyatiga kelib, Kitob shahridan 20 chaqirim sharqdagi Varganza (Vag'anzi) qishlog'ida o'rnashgan Ochilbek guruhi bilan qizil askarlar o'rtasida 1923-yil 9-mayda tengsiz olishuv bo'ldi. 10-maydagi ma'lumotlarga qaraganda, Ochilbek guruhi Kitob atrofidagi muvaffaqiyatsiz jangda o'z bayrog'ini yo'qotib va bir necha o'liklarni, shu jumladan Ochilbekni ham qoldirib, Taxta Qoracha dovoni orqali Qaynar Buloq yo'lidan Samarqand viloyatiga jo'nab ketishdi. Ochilbekning o'limidan so'ng 130 yigitdan iborat guruhga Ziyovuddin boshchilik qila boshladi".

Ammo sovet hukumati uchun ularga qarshi chiqqan har qanday isyonchi umri ayanchli yakun topishi kerak edi. Natijada "Ochil Dov"da uning halokati fojiali yo'sinda tasvirlanib, qo'rboshining shaxsiy jasorati va ozodlik yo'lidagi kurashini kamsitishga qaratilgan syujet yaratiladi:

Qizil askar g'ayrat qildi, Kech bo'lganin endi bildi. Bosmachini quvib, surib, Ochilni ko'krakdan urdi.

...Mirzapolvon Ochilning o'ligini nima qilamiz, deb og'iz soldi.

...Hovlisidan go'r qazdirib, Ochilga

janoza o'qib, ko'mdi. Ustidan tong otmay, qo'sh qo'shtirib, birday qilib haydatib tashladi.

Shunday qilib, qizil askarning kuchi bilan, militsiyalarning quvvati bilan, el odamning yordami bilan bosmachilarning tuxumi qurib, el tinchib, obodonlik bo'lib, Sho'ro hukumati rivoj olib, kun-kundan daraja topib, endigi zamonlar bo'lib ketdi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, "Ochil Dov"

dostonidagi voqealar chuqur tarixiy haqiqat asosida emas, balki Sho'ro hukumatining "muqarrar g'alabasi" ustuvor vosita sifatida asosiy o'ringa chiqadi. Ushbu doston qahramonning shaxsiy fojiasi sovet ideologiyasi g'alabasini tasdiqlovchi ramziy vositaga aylantirilgan bo'lib, asar badiiy yo'nalishdan ko'ra ko'proq mafkuraviy-targ'ibot vazifasini ado etgan.

ASLIDA qo'rboshilar harakati ishtirokchilari har biri mustaqil dostoniga arzigan tarix va taqdir egalari. Ularning hayotidagi mardlik, fidoyilik, ayni paytda achchiq va ayanchli voqealar milliy ozodlik kurashi tarixining ajralmas qismi hisoblanadi. Biroq afsuski, yuzlab qo'rboshilarning tarixiy shaxsiyati va faoliyati ilmiy asosda chuqur tadqiq etilmagan, ular haqdagi asarlar esa sanoqli manbalar bilan cheklanib qolmoqda.

Shu bois qo'rboshilarning hayoti va merosini hujjatlar, arxiv materiallari asosida o'rganish, ularning haqiqiy qiyofasini qayta tiklash tariximiz va adabiyotimiz oldidagi dolzarb vazifa sifatida ko'rinishi zarur. Bu jarayon nafaqat tarixiy adolatni tiklashga, balki milliy o'zlikni anglash va mustaqillik g'oyalarini mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

Kapitan Bobur ELMURODOV, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori



Ijodkor harbiylar

IJODKORLIK — SEHRLI QOBILIYAT



Ijodkor insonlarni hamma sohada uchratish mumkin. Xususan, Vatan himoyachilari orasida ham. Tarixga nazar tashlasangiz, shoh-u sarkarda, olim-u allomalarning ko'plari she'r-lar qoralaganidan voqif bo'lasiz. Umar Xayyomni dunyoga tanitgan, necha asrlar o'tmasin, olam ahlini hayratga solib kelayotgan she'riy to'rtliklari aslida matematika va astronomiya yo'lidagi izlanishlari qayd etilgan daftarlari chetiga bitilganidan ko'pchilik xabardor bo'lmasa kerak. Ha, olimning falsafiy ruboiylari uni ulug' shoir sifatida e'tirof topishiga zamin yaratgan.

Aytmoqchimizki, ko'ksida iqtidori jo'sh urib turgan harbiy xizmatchilarimiz ham zahmatli xizmatdan bo'sh paytlari she'r, xizmati bilan bog'liq qiziqarli voqea va hikoyalar qoralashini bilamiz. Ayrimlari tahririyatimizga ijod namunalarini yuborib turadi. Biroq ularning aksari qismi yozganlarini tashqariga chiqarishni istamaydi. Aslida yuragida Vatanga, xalqiga bo'lgan muhabbati ustuvor, tuyg'ulari tiniq sohir qalb sohiblarigina yurak "dardini" qog'ozga tushira oladi. Bu e'tiborga sazovor betakror tuyg'u, ilhom qanotidagi ijodiy jarayondir. Shu sabab biz "Ijodkor harbiylar" rukni ostida iqtidorli yurt posbonlarining ijod namunalaridan berib borishga qaror qildik.

She'riyatga oshno posbon

Ruknimizning dastlabki mehmoni Markaziy harbiy okrug tasarrufidagi harbiy qismda yigitlik burchini o'tayotgan muddatli harbiy xizmatchi, oddiy askar Lazizjon Erkaboyev. U Farg'ona viloyatining Bog'dod tumanida voyaga yetgan. Armiyaga qadar O'zbekiston Milliy universitetining Jurnalistika fakultetini tamomlagan. Ayni damda armiya maktabida toblanayotgan posbon yigitning harbiy xizmat va ijodi bilan bog'liq savollarimizga javob olamiz:

– Oltinchi sinfdan boshlab she'r mashq qila boshlaganman. She'riyatga qiziqishimni sezgan til va adabiyot fani o'qituvchimiz Avazbek Namozov ustozlik qilgan. She'r yozish qonun-qoidalaridan saboq bergan. Mashqlarimni o'qib, maslahat va o'gitlarini

ayamagan. She'riyatga bo'lgan mehrim umumta'lim maktabini bitirganimdan keyin O'zbekiston Milliy universitetining Jurnalistika fakultetida tahsil olishimga zamin yaratdi. Oliygo'hnini bitirgach, ilkimdagi yigitlik burchimni o'tashga qaror qildim. Muddatli harbiy xizmatga munosib topilganim, mening omadim deb o'ylayman. Chunki harbiy xizmat davomida nafaqat askarlik majburiyatimning nazariy va amaliy ko'nikmalarini egalladim, balki kelajakda harbiy jurnalist bo'lishga qaror qildim.

Maqsadim – harbiy jurnalistlar qatorida xizmat qilish, Vatan himoyachilarining sharaflari xizmatini yoritish. She'riyat esa qalbidan joy olgan doimiy hamrohim.

Oddiy askar Lazizjon Erkaboyevning she'riy mashqlari bilan tanishar ekanman, uning satrlarga singgan o'z aytar so'zi, hayotga bo'lgan qarashlari, bir so'z bilan aytganda, o'ziga xos iqtidori borligini his qildim. Shubhasizki, yonib turgan yosh yurakda Vatanga, yorga bo'lgan ishq-muhabbat tuyg'usi ko'tarinki bo'ladi. Shunday ekan, keling, posbon yigitning dil sadosiga quloq tutamiz:

BURCH

Baxt kulgan yurtimning koshonasida,
Yashaymiz, baxt kulgan peshonasida.
Aytamiz, so'zlarning har donasida:
Vatanni asramoq, uni sevmoqni,
“Hamisha qalqoning menman!” demoqni.

Matonat yigitning bilagida kuch,
Chekinmay yo'q qilar, g'anim kelsa duch,
Har bir er yigitning oldidagi burch –
Vatanni asramoq, uni sevmoqdir,
“Hamisha qalqoning menman!” demoqdir.

Mustahkam qo'rg'ondir, birdam yigitlar,
O't chaqnar qadam shaxdam yigitlar.
Madh etar har doim, har dam yigitlar –
Vatanni asramoq, uni sevmoqni,
“Hamisha qalqoning menman!” demoqni.

Tun-u kun sergaksiz, yomg'irimi, qormi,
Olgansiz sarbaland tog'dan viqorni.
Minbardan kuylaysiz shonli shiorni –
Vatanni asramoq, uni sevmoqdir,
“Hamisha qalqoning menman!” demoqdir.

Yengilmas armiya, yengilmas qo'shin,
Tik turar, g'ururga jasorat qo'shib.
O'tli yuraklarda o'tli bir qo'shiq –
Vatanni asramoq, uni sevmoqdir,
“Hamisha qalqoning menman!” demoqdir.

Seni sog'inganman garchi
haqqim yo'q,
Garchi hislarimga erk berish xato!
Sen sira o'ylanma, ko'ngling
bo'lsin to'q,
Uchrashsang, soyangga
boqmayman hatto!
Yillar yemiradi umrimiz sekin,

Hayotimiz o'tar, yo'llar qa'rida.
Mendami, sendami bilmadim, lekin:
Maqsadlar qaridi...
Mana. Necha kundir

bilmayman holing.
Mening qandayligim
so'rading qachon?!
Nima foydasi bor taqdiridan nolib,
Qara. “Biz” bo'lmaymiz endi

hech qachon!
Har kimning o'z yo'li, safari tayin,
Barini sevgiga ag'darish xato.
O'sha kun keladi – bo'lsa-da qiyin:
Ismingni xotirlay olmayman, hatto!

Boshlashga kech bo'ldi, axir yangidan,
Ikkimiz yetti yot – begonalarimiz!
Ehtimol, yutardik sabr jangida...
Kurashsiz yengilgan – devonalarimiz!

Hayotning har darsi – har yangi tugun,
Pushaymon bo'lmadim, bilganlarimdan.
Zarbaning eng zo'ri kelarkan bir kun –
Eng yaxshi tanigan, bilganlaringdan

“Ko'zbo'yama” sahnalar – hukm!
Dard-u alam – yig'ilganidan.
Rol o'ynashga etilgan mahkum
INSONIYAT tug'ilganidan...
Kunda yuz bor almashar sahna,
Kunda yuz bor almashadi zal.
Kimda yuz bor solguvchi raxna,
Kimda yuz bor o'zgarmas azal.
Parda ortin bilmaydi birov,
(Yaxshi hamki pardalar qalin)
Sirtida bahor, ichda qor-qirov.
Sezdirmaydi, sizga atayin...
Lekin yurak yutib to'yadi,
Parchalaydi, etabr otini.
Bir kun ijro etmay qo'yadi,
Yaxshi inson epizodini...

So'nggi so'zlar og'ir bo'ladi,
So'nggi tilak egadi boshni.
Aytсам... Ko'zga shabnam to'ladi:
Topgin yaxshi umr yo'ldoshni!



Hech bo'lmasin, ko'zlaringda nam,
Bo'lgin faqat yaxshilarga yor.
O'tinaman – boshing oqsa ham,
Yoshing oqmas tomonlarga bor!

Kema cho'kdi... Botdi orzu, umidlar ham,
Oramizda masofalar ulkan... ulkan...
Eslaganda, bir kun bo'lar
ko'zlaring nam,
Boshing uzra tortilganda o'zga yelkan...

Yillar o'tdi... Bir diydorga yetmadi vaqt,
Yo'llar qayta tutashmadi hech bir zamon.
Adashib ham peshonaga bitmasmi baxt?!
Adashib ham kelmading-a, sen men tomon?!

Baxtni kutgan ko'zlarimiz jiqqa shabnam,
Ikkimizga ikki taqdir bo'ldi hukm.
Nasib yo'qmish, qancha boshdan
boshlasak ham,
Murodiga yetmadi, bizning yakun...

Bormisan, yo'qmisan, o'taverar kun,
Ochmisan, to'qmisan, borliging
– bu baxt.

Siqilma, mensiz ham aylanar ochun...
Siqilma, sensiz ham to'xtamaydi vaqt...

To'rt taraf ham yetaklar senga,
To'rt tarafdan kutarman kelsang...
Masofalar qiziqmas menga,
Boshim oqqan tomonim sensan.

Uchrashmadik sen bilan qayta,
Yuragingdan ololmadim joy.
Shundan beri sirdoshim qahva...
Shundan beri xushlamayman choy!

Hatto orzular ham aylandi kulga,
Endi uzrlaring kech, foydasi yo'q.
Kecha najot kutib qurigan gulga,
Bugungi yomg'irning hech foydasi yo'q.

Izn berma, har narsaga,
O'rganib qolma, yurak.
So'ng ezilib, so'ng xo'rsinib,
O'rtanib qolma, yurak.

Shuncha payt yo'ling to'sgan,
Aqlimni qilma tergov,
Pushaymonlik yomon juda,
Chidolmasang keragov.

Hali yoshman men ham ishqqa,
To'lishim kerak dema!
Hech bilmagan insonlarga,
Sen ishonib, pand yema.

Urib tursang, nafas ila,
Men hayotda bordirman.
Ishonaman, ammo biroz,
Baxtingdan xavotirman.

Sabr bilan kutib kelgan,
Sinovdan o'tolsayding.
Endi, menga navbat desang,
Vaqt tugab qolmasaydi,
Baxt tugab qolmasaydi.

Zulfiya YUNUSOVA,
“Vatanparvar”

Keling, kitob o'qiymiz!

ZAMINGA SIG'MAGAN ORZULAR

– Muhabbat nima?
– Tuyg'u va taqdirlar dramasi.
– Ona muhabbati-chi?
– Koinot ko'ksidagi drama...

Publitsist Iqbol Qo'shshayevaning yaqinda nashrdan chiqqan “Zaminga sig'magan orzular” kitobi haqida ijtimoiy tarmoqlardan o'qidim. O'sha zahoti kitobni darakladim. Hamkasbimiz Sayyora Meliqo'ziyevaning nashriyotlar bilan hamkorligi qo'l kelib, nashriyot kitob do'konidan olib, kaminangizga sovg'a qildi. Go'zal sovg'a, meni ko'o'p sevintirgan, sovg'a!

Bu kitobni tavsiya qilishdan avval biroz o'ylandim: “esse, ocherk, taqriz, suhbat”larni o'quvchilar qanday qabul qilar ekan? Bulardan ko'pi tanish, ilgari katta qiziqish, hayrat bilan o'qiganman. “O'zbekiston adabiyoti va san'ati” gazetasida e'lon qilingan. Negadir Iqbol Qo'shshayeva degan jurnalist katta yoshli ayol bo'lsa kerak, deb o'ylandim. Shoir, yozuvchi, tarjimon Nargiza Asadning kitob taqdimotida u bilan ko'rishib qoldik. Yosh, go'zal, ayniqsa ko'zlari shu qadar chiroyli. Ilmliligini aytmayisizmi...

To'plamni sizga tavsiya qilishimga sabab bo'lgani yuqoridagi to'rt qator epigrafi. Ha, ha, aynan o'sha to'rt qator uchun bu kitobni topib o'qisangiz, arziydi. Kitobga elning taniqli va sevimli insonlari – Rimma Ahmedova, Bahodir Yo'ldoshev, Dilorom Karimova, Murod Muhammad Do'st bilan suhbatlar kiritilgan. Bular oddiy suhbatlar emas, ularda millat oydinlari olamiga kirasiz.

Aziz o'quvchi, har doimgi targ'ibotimizdan farqli ravishda kitobdan “O'n martalab o'qiladigan o'n kitob” maqolasigagina to'xtalishni lozim topdik. Aynan shu maqola bizning sahifamizga tamoman mos keladi, nainki mos keladi, balki ko'rk bo'ladi. Quyida undan parchalar keltirish bilan chegaralanamiz. Bunda izohlar ortiqchalik qiladi. Izohdan ko'ra, kitobning o'zini topib o'qish avlo.

O'qiymiz: “Mutolaani muayyan yosh oraliq'ida chek-chegaralash nisbiy holat.

...bugungi avlod (*turf a ijtimoiy tarmoq, internet jilvalaridan ortib!*) ushbu “o'ntalik”ni o'qishga astoydil bel bog'lasa, keyingilariga o'z-o'zidan yo'l ochiladi”.

1. “O'tkan kunlar”

“O'zini o'zbek bilgan odam ilk ikki romanni o'qimasligi mumkin emas. Qodiriy domlaning o'zlari ham “O'tkan kunlar”ni “besh marotaba o'qiladurg'on kitob”, degan ekan. Har o'qiganingda rang-barang taassurot, avval ilg'amagan qo'riqlarini topib boraverasan. Bolalik adog'i yoshlik ostonasida o'qilsa, tabiiyki muhabbat mavzusi diqqatni tortadi.

Yillarni o'tkazib o'qiganingda, nigohing ma'suma Kumushning Otabegiga emas, mutafakkir Qodiriyning Otabegiga tushadi. U bilan hamohang fikrlaysan. Millatni millat qiladigan Otabeklar ekanini anglaysan. Ularni qanday qilib “o'q”dan asramoq kerakligi haqida qayg'urasan”.

2. “Mehrobdan chayon”

“Ra'no hamma zamonlarning “nodir uchrayturgon yakto fozila qizlaridan”. O'ylab qolaman, xon harami ostonasini o'ziga ep ko'rmagan, ota-onasi va ukalarining hayotini tahlila ostiga qo'yib, yarim tunda erkakcha libosda ota hovlisini tark etgan Ra'no o'z davri – muhiti uchun qanchalar o'gay farzand bo'lgan ekan-a? Agar u ancha-muncha madaniylashgan dunyoning farzandi – bizning

zamondoshimizga aylangan taqdirda ham bu isyonkor qizning qismati qanchalar og'ir kechardi...

Uni barcha tahqir-u nadomatlardan a'lo ekanini isbotlay olarmidik? Kumushbibi jozibasidan ko'ra, Ra'noning mardligi ko'proq o'ylantiradi. Ayni damda zamondoshing qiyofasida marg'ilonlik suluvi emas, Ra'noni ko'rging keladi. O'zbek adabiyotida yaratilgan ayol qahramonlar orasida eng zalvarlisi ham shu bo'lsa kerak”.

3. “Yevgeniy Onegin”

“Muhabbat haqidagi betakror asar. 15-16 yoshda o'qiganingda zerikish dardiga muhtalo bo'lgan Oneginni va tuyg'usi ma'yus Tatyani o'zingcha tushungandek bo'lasan. Lekin ularning cho'ng iztirobi bilan bo'ylasha olmaysan. Shu bois bu kitobni ayni navqironlik ayyomida yana bir karra mutolaa qilgan ma'qul. Pushkinning o'zi tan olishicha, “Yevgeniy Onegin” aqlning sovuq kuzatuv va yurak hasratining mahsulidir.

“Yevgeniy Onegin” o'z zamoniga sig'magan, lekin hamma zamonlarning erka farzandiga aylangan shoir arzi holidir”.

4. “Graf Monte Kristo”

“Aleksandr Dyumaning tutqunlik, mutelik, ojizlikdan xalos etadigan bu romani o'quvchi yuragida qat'iyatni uyg'otadi. Xudoga tavakkal qil, deydi. Vaqt hamma og'riqlarni davolashi, kimgaki qanday yomonlik qilma, o'zingga qaytib kelishidan saboq beradi. Hayotning qaltis vaziyatlarida sinib qolmaslikka o'rgatadi. Kitobsevarda ertangi kunga ishonch, ilmga rag'batni kuchaytiradi.

“Graf Monte Kristo” inson irodasiga qo'yilgan haykaldir!”

5. “Abadiyat qonuni”

“Nodar Dumbadzening ushbu asarida jurnalist Bachananing shunday gapi bor: “Insonning yuragi uning tanasidan yuz barobar og'irroq... Shu darajada og'irki, uni bir kishi ko'tarolmaydi... Binobarin biz odamlar toki tirik ekanmiz, bir-birimizga yordam berishimiz, bir-birimizning yuragimizga madad bo'lishga harakat qilishimiz kerak: siz – menga, men – unga, u esa boshqa birovga...” Inson qanchalik irodali bo'lmasin, yuragidagi zalvarni yolg'iz o'zi ko'tarishga ojiz. U hamdamga muhtoj”.

6. “Amfibiya odam”

“Aleksandr Belyayevning ushbu asarini 12 yoshimda o'qiganman. Darsda edim. Eng oxirgi partada o'tirib, kitobning oxiriga yetganimda, piqillab yig'lab yuborgandim. Sinfdagilarning hammasi ajablanib qaragandi o'shanda. Asar yakunida odamlar Ixtiandrni unutgan, bunday odam-baliqning yashagan yo yashamagani cho'pchakdek tuyulib, hammaning yodidan chiqqan vaqtda ham chin otasi Baltazarning

dengizga qarab, “Ixtiandr, o'g'liimmi!” deb nola qilishidan ta'sirlangandim. Asar ilmiy-fantastik janrda bo'lsa-da, odamzodning jirkanch hayotini tahlil qiladi. Doktor Salvator: “Men baxtli odamlar dunyosini yaratmoqchi edim. Odamlar baxtli bo'lsin, degandim. Inson jamiki illatidan poklanib, turfa pastkashliklarini tark etib, osuda jamiyatda yashashini orzu qilgandim”, deydi”.

7. “Oqcharloq Jonatan Livingston”

“Richard Baxning ushbu asari yoshlarning doimiy hamrohi bo'lishini xohlardim. Tez-tez o'qib tursalar deyman. Kitobxonni ma'nan bir pog'onaga ko'taradigan va ruhiy parvoz zavqini beradigan kitob bu. “Oqcharloq Jonatan Livingston” hikoyasi “Lison ut-tayr”ning sodda varianti. Yetuklik, komillik haqidagi gaplar labimiz qirg'og'idan shu qadar osongina to'kilib ketadiki... Balkim, bu tushunchaning asl mag'ziga yeta olmaganimiz uchun ham jo'n tasavvurimiz “komillik”ni uvul qilib tashlar.

Bu qushlar haqidagi asar emas, o'zimiz, insoniyat haqidagi asardir”.

8. “Ichindagi ichindadur”

“Xullas, ichki erkka erishmasdan, ma'naviy tushovlarni uzmasdan turib, komillikni orzu qilib o'tirmang. Mavlono Rumi boshdagi zanjirlardan – hayotning zamzamaridan ozod bo'lishga undaydi. Eng xavfli zindon ongdagi mahdudlikdir. “Biz yagona og'ochning butalarimiz”, deya din-u mazhab devorlarni qulatadi”.

9. “Anna Karenina”

“Ayol va erkak dunyosi kesishgan, tadqiq etilayotgan nuqta har doim qiziq

tuyuladi. “Anna Karenina” ham shunday. Tuyg'ularini mardlarcha himoya etgan, chin ishqqa tashna, jamiyat zanjirlaridan ozod ayol qismati ko'pchilikda e'tiroz uyg'otar, lekin hayotning beomon gurzisi sizdagi kibni chilparchin qilib, ayol iztirobi bilan yuzma-yuz qo'yishi hech gap emas. Xoh erkak bo'lsin, xoh ayol. Bunday ishqning yukini hech kim ko'tara olish yoki unga munosib bo'lish qanchalar qiyin!!!”


10. “Xayol chechaklari”

“Yozuvchi bo'laman degan kitobxon Valentin Katayevning “Xayol chechaklari”ni o'qisin. Esse, xotiralar qanday yozilishi, fikr qanday ifodalanishi bilan tanishsin. Bu bir o'qib, qayta qo'lga olinmaydigan asar emas. Uzoq-uzoq yillargacha takror-takror mutolaa qilish mumkin. Davr ta'siri, mafkura tazyiqlaridan xoli xotiranomada muallif Mayakovskiy va Bunin misolida tuzumga o'zining shaxsiy, xolisona munosabatini bildiradi. Biri yangi davr – shiorlar davrini chapak chalib qarshi olsa, ikkinchisi mutlaq inkor etadi. Ammo ikkisining qismati-da fojiaiy. Ayni o'sha palla inqilobdan keyingi hayot – qadriyatlar yer bilan bitta bo'lgan, xuddi Alpomish “o'lib”, ultontozlar to'rga chiqqan davr edi”.

Yuqorida “izoh ortiqchalik qiladi”, deb yozdim-u, o'zimni arang to'xtatdim. Suhbat kitoblar mavzusi ekan, jim tinglashim ancha og'ir keladi. Sizga kitob asnosida chig'anoq ichidagi durdek parchalar ilindim.

Huzurli mutolaalar tilagi bilan

Inobat IBROHIMOVA,
“Vatanparvar”



Meros

YALDO KECHASIGA DOIR QADRIYATLAR

Dunyo yaralibdiki, u o'z qonuniyatlari asosida boshqariladi. Tun-u kun, oy va fasllar almashinuvi – barchasi koinot jismlari harakati asosida amalga oshadi. Aslida ularning hammasi taqvim bilan bog'liq bo'lib, xronologiya va astronomiya fanlarida chuqur tadqiq etiladi. Vaqt bilan bog'liq ana shunday muhim sanalardan biri, qishning eng uzun va eng qorong'i tuni – yaldo kechasi.

Yilning eng uzun va qorong'i kechasi yaldo kechasi hisoblanadi. Bunday hodisa yilda bir marta kuzatiladi. Avvalo, bu astronomik hodisa qanday ro'y berishi haqidagi aniq faktlarga to'xtalsak. Tabiatning mazkur ajoyib hodisasi 21-dekabr dan 22-dekabr ga o'tar kechasi kuzatiladi. Bilamizki, Yerning ekvator chizig'i bo'lgani kabi osmonning ham ekvatori bor. Yer ikki qismga bo'linadi: janubiy yarimshar va shimoliy shar. Quyoshning osmon ekvatoridan janubiy yarimsharga eng uzoqlashgan paytida Yerda eng uzun tun kuzatiladi va bu 21-dekabr ga to'g'ri keladi. Mazkur eng uzun tun qariyb 17 soat davom etadi. Quyosh osmon ekvatoridan uzoqlashsa, Yerda tunlar uzayadi, aksincha bo'lsa, kunlar uzayadi. Agarda ekvator chizig'iga kelib, 0 ga tenglashsa, tengkunlik bo'ladi. Shuning uchun bahorgi tengkunlik 21-mart, kuzgi tengkunlik 22–23-sentabr, eng uzun kun 23-iyun, eng uzun tun esa 21-dekabr ga to'g'ri keladi.

Yaldo kuzning eng so'nggi kuni va qishning boshlanishi hisoblanadi. Yaldo so'zi suryoniy tildan olingan bo'lib, "tug'ilish", "yangilanish" ma'nosini bildiradi. Qishning birinchi kunida quyosh chiqqanidan keyin kechalar davomiyligi asta-sekin qisqaradi va kunlar esa uzayadi. Ma'lum ma'noda Yer qayta tiklanadi.

Arxeologlar yaldoning tarixi bundan 7 ming yil oldingi uzoq davrlarga borib taqalishini taxmin qilishgan. Mutaxassislar fikriga ko'ra, yaldo kechasi miloddan avvalgi 500-yil va uning Doro I davrida qadimgi forslarning rasmiy taqvimiga kiritilgan sanasi bilan bog'liq.

Yilning eng uzun tunini qadimgi oriylar kechki bayram qilishgan. Zardushtiylardan davom etib kelayotgan yaldo tunini nishonlash marosimini qadimgi eronliklarning quyosh xudosi Mitra (*Mexra*) ning tug'ilishiga atab o'tkazishgan. Qadimgi xalqlar tasavvurida tun soat 12 da quyosh xudosi – Mitra duyonga kelgan va uning sharafiga bayram qilingan.

Yaldo kechasi Abulqosim Firdavsiyning "Shohnoma"sida, Sa'diy Sheroziyning "Bo'stoni"da, Umar Xayyomning "Navro'znoma" va Abu Rayhon Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarlarida tilga olingan.

Masalan, XII asr oxirlarida Sheroziy "Bo'ston" asarida: "Haqiqiy tong, yaldo kechasidan keyin keladi", deb yozib qoldirgan. Dunyo tarixidagi eng mukammal xaritalardan biri sanalgan Umar Xayyom taqvimida ham bu kun aniq belgilab berilgan.

X asrda yashab ijod etgan donishmand va tarixshunos Mas'udiy "Al-tanbeh val-ashrof" kitobida yilni to'rt faslga ajratdi va yilning uchinchi faslining oxirgi kechasini qish inqilobidan oldingi kecha yoki suryonlik "Konunul avval" oyning 22 kuni bilan to'g'ri kelishini bayon etadi.

Abulqosim Firdavsiy manbalarga tayanib, "Xurro'z" va yaldo kechasining nishonlashini Eron podshohlaridan bo'lmish Hushang nomiga nisbat beradi.

Yaldo tuni turli xalqlar va madaniyatlar vakillari, ya'ni tatar, ruslar, eroniylar, tojiklar, afg'onlar, turkmanlar, qozoq va azarbayjonlarni birlashtiradigan marosimdir. Umuman olganda, marosim Sharq xalqlari ijtimoiy-ma'naviy hayotida muhim o'rin tutgan.

Yaldo tuni "Milodi Akbar", "Quyoshning tug'ilishi", deb ham nomlanadi. Eronliklar, tojiklar bu tunni "shabi Yaldo", "shabi chilla", ya'ni "chilla kechasi" deb ham aytiladi. Sababi bu tundan keyin qishning birinchi qirg'iz kuni – "katta chilla"si, undan keyin esa ikkinchi yigirma kunlik "kichik chilla"si boshlangan. Xalq tajribasida qishning eng sovuq kunlari ham ayni shu davrda aniqlangan. Ya'ni 30-yanvar kundan boshlab Sada bayramiga tayyorgarlik ko'rilgan. Sada fors tilida yuz ma'nosini anglatuvchi bayram – Navro'zga 50 tun va 50 kun qolganini bildirgan.

Yaldo kechasini ba'zi xalqlar Navro'z, Mehrjon va Sada bayramlari sifatida jamoa bo'lib nishonlagan. Sada eronliklarning quyosh taqvimi bo'yicha o'n birinchi oyi – braxmaning uchinchi kunida bayram qilingan. Sada Navro'zdan 50–55 kun oldin kelgani uchun xalq orasida "Iydi day" (*Qish bayrami*) deb ham yuritilgan.

Yaldo kechalarini insonlar zoriqib kutishgan. Qish kezlari hafta sayin gap-gashtak tashkil etilgan, davraga to'planganlar shirin suhbatlar qurishgan, sandal atrofida jam bo'lib, palov yoki norin tanovvul qilishgan. Yaldo dasturxoniga alohida hozirlik ko'rilib, u "sufrayi yaldo", "sufrayi chilla", "dasturxoni yaldo" deb atalgan. Yaldo kechalarida gap-gashtak o'tkazilgan xonadon sohiblari mehmonlarni to'kin dasturxon tuzab, kutib olishgan. Qo'y so'yilib, tandir nonlar yopilgan. Hayvon va parranda go'shtidan tansiq taomlar tayyorlangan. Shuningdek, dasturxondan xurmo, asal, turshak, jiyda, yong'oq, bodom va quruq mevalar ham o'rin olgan. Bularning hammasi baraka, sog'lomlik va xursandchilik timsoli sanalgan. Dasturxonda mevalardan, albatta, anor bo'lishi shart edi. Chunki anor quyoshga qiyoslanib, unumdorlik, hosildorlik, farovonlik, to'kin-sochinlik ramzini ifodalagan.

Xalq e'tiqodida yaldo tunini "Quyoshning tundagi vakili" deb tasavvur

qilishgan. Tun soat 12 da tarvuz teng ikkiga bo'lingan va uni quyoshga qiyoslashgan. Qizil rangga ega tarvuz va anorni iste'mol qilish ramziy odatga aylangan. Dasturxondagi noz-u ne'matlarning har biri o'z ramziy ma'nosiga ega bo'lgan. Tarvuzning aylana shakli va qizil rangi orqali mitraizm an'analarga hurmat ifoda etilgan. Shuningdek, tarvuz hosil paytidagi issiqlikni eslatadi, anor va uning donalari nasl davomiyligi, serfarzandlikni bildirgan.

Yaldo qorong'ilik ustidan yorug'likning, yovuzlik ustidan ezgulikning g'alabasi kuni hisoblanadi. Qadim zardushtiylar e'tiqodida ham ezgulik kuchlari quyosh nuri va olov bilan, yovuzlik kuchlari esa tun va zulmat bilan g'aldalanadi. Shuning uchun yaldo kechasida ig'vo, g'iybat, gina-kudurat qilishga mutlaqo yo'l qo'yilmagan. Ahilinoq ulfatlar kecha davomida iqtisodiy jihatdan qiynalgan oilalarga yordam qilish, to'y va ma'rakalarni tashkil etish haqida maslahatlashgan. Yaldo kechasida keksalar, o'rta yoshlilar va yoshlar alohida yig'ilib, suhbat qilishgan. Xotin-qizlar ham o'z tengqurlari bilan ko'ngil ochishgan. Ular g'azalxonlik qilishgan, bahribayt aytib, mushoiralar o'tkazishgan. Bu tun qissaxonlik, hofizxonlik, sa'diyxonlik, bedilxonlik, rumiyxonlik bilan o'tkazilgan. Shuningdek, raqs tushishib, qo'shiqlar xirgoyi qilishgan, dutor-daira chalib, o'yin-kulgini qizitishgan.

Yaldo kechasi hozirgacha eronliklar orasida alohida o'rin tutadi. Ushbu uzoq tunni qarindoshlari va oila a'zolari davrasida juda quvnoq o'tkazishadi. Ular Chor darvesh, Abulqosim Firdavsiy "Shohnoma"sini o'qish, Hofiz Sheroziy devoni bilan fol ochish, doston va ertaklar aytish bilan tunni tongga ulashadi. Bundan tashqari, kitob mutolaasini odatga aylantirish uchun kimdir kitobni qo'lga olganda, ko'zni yumib turib, nimadir istab, go'yo niyat qilib, kitobni ochib ko'rsatkich barmoqni biror baytga bosgan. Uning mag'zini chaqishgan va ezgu niyat qilishgan.

Yaldo kechasi eng uzoq tun bo'lgani uchun "Sevishganlar kechasi", "Oshiqlar kechasi" ham deyilgan. Yaldo kechasi Sharq she'riyatida ham alohida ta'kidlagan. Bu kecha oshiqlar o'z yorlariga sovg'a-salomlar, shirinliklar hadya etgan.

Qish faslining ushbu bayramini dehqon va chorvadorlar ham keng nishonlagan. Bayram "inqilobi zimiston" (*qish inqilobi*) deb nomlangan. Ayni bu davrda dehqonchilik taqvimiga muvofiq, chilla davriga to'g'ri keladi va yer uxlab, dam oladi. Yaxshi muzlab, dam olgan yer, erta bahorda unumdor va serhosil bo'ladi. Yetishtiriladigan hosil barakasi, chorvachilik rivoji ko'p jihatdan chilla ob-havosiga bog'liq. Zero yomg'ir – baraka, qor – rizq, demak.

Kuzatuvlarga qaraganda, yurtimizda ayni shu pallada yog'ingarchilik ko'p bo'lar ekan. Zero shu kunlarda yog'gan qor dehqonlarimiz uchun ayni muddao. Chunki u kuzgi bug'doy mayсалari ustini ko'rpadek qoplab, ekinni qahratonning izg'irinaridan asrarkan. Shudgor qilingan yerlarda qorning singuvchan suvlari nam saqlab, ozuqa vazifasini o'taydi. Eng muhimi, qishlovchi zararkundalarga qiron keltiradi. Keksalarimiz duoga qo'l ochganda, bekorga "Qish qishday bo'lsin" deyishmagan. Xalq e'tiqodida yaldo kechasi "Rizq va baraka" bo'lib, Allohning izni bilan maloikalar rizq va nasibalar taqsimlashar ekan.

Bugungi kunda asosan, Eron, Afg'oniston, Tojikiston va Ozarbayjonda yaldo tuni bayram qilinadi. 2008-yildan buyon yaldo tuni Eronning milliy bayrami sifatida qabul qilingan. 2022-yilning 28-noyabr – 3-dekabr kunlari Marokkoning Rabot shahrida bo'lib o'tgan YUNESKOning 17-sessiyasida 48 ta yangi element qatorida yaldo kechasi bilan bog'liq qadriyatlar insoniyatning nomoddiy merosi ro'yxatiga kiritilgan.

Yaldo tuni insonlarga qish qahratonlaridan saqlanish, unga tayyor va hushyor turishni o'rgatgan. Tun bilan yoqilgan gulxanlar, shamlar orqali havo haroratini yaxshilashga, zax va sovuq kunlardan sog'omon qutulishga ishonchni oshirgan. Inson tabiatning ajralmas bir bo'lagi. Shunday ekan, tabiat inijliklariga sabr qilish, uni yengish barobarida u bilan kelishib, murosa qilishga majbur.

Yaldo kechasida tuni bilan o'tkazilgan mushoiraxonliklar, qissaxonliklar, tarixdan qilingan ilmiy-ma'rifiy suhbatlar marosim ishtirokchilari, ayniqsa yosh avlodni qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, o'tmishdan xabardor qilishga xizmat qilgan.

Xalqimizning yaldo tuni va uning bilan bog'liq qarashlari va e'tiqodlarini o'rganish masalasi turli mutaxassislar – tarixchi, arxeolog, etnolog, tilshunos, folklorshunos, san'atshunos, astronomlardan hamijihatlikda va fanlararo yondashuv asosida keng tadqiq etishni talab etadi.

Manzila QURBONOVA,
BuxDU professori,
tarix fanlari nomzodi.
Shavkat BOBOJONOV,

Madaniyatshunoslik va nomoddiy
madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti
bo'lim mudiri,
tarix fanlari bo'yicha falsafa
doktori, dotsent



Bo'lajak jurnalistlarga...

QANDAY QILIB TA'SIRCHANLIGI, SAMARADORLIGI

YUQORI BO'LGAN XULOSALARNI YOZISH MUMKIN?

Sodir bo'lgan voqelik to'g'risida axborot beruvchi shaxs, mutaxassis sifatida jurnalistik asarlar yaratishda, yozishda ko'plab usullardan foydalanamiz. "Maqolangizning dastlabki xatboshisidan oq mushtariylarga ta'sir ko'rsating" ("Get greater impact at the start of your articles") sarlavhali maqolamda ta'kidlanganidek, "5W+1H" (Kim, nima, qachon, qayerda, qanday qilib, nega?) qoidasini jurnalistik asarning kirish qismida, birinchi va ikkinchi xatboshida qo'llash mumkin. Ta'sirchanligi, samaradorligi yuqori bo'lgan xulosalar yozish borasida nima deysiz? Maqolada xulosaga o'rin ajratishdan bizga ne naf? Umuman olganda, maqola janrida yozilgan jurnalistik asarlar xulosa qismi ta'sirchanligini oshirishning bir necha usullari mavjud.

Amerikalik yozuvchi Jeyson Shen "The Atlantic", "Fast Company" va "The New York Times" gazetalarida chop etilgan, tahliliy janrlar turkumiga kiruvchi, eng yaxshi 100 ta maqolani o'rganib chiqqan. Ularning 6 tasi Malkolm Gladuell qalamiga mansub. Shen kishilik jamiyati vakillari, turli xil makon, manzillar, voqea-hodisalar, muhim ahamiyatga ega bo'lgan g'oyalar tadqiq etilgan, ya'ni dolzarb, ko'tarilgan masala yoxud muammo markazida turgan qahramon (obraz)ning kechinmalarini yaqindan his qilishga, tushunishga imkon beradigan maqolalarni tahlilga tortishni xohlagan. E'tibor va ehtiyotkorlik bilan tahrir qilingan (ya'ni nashrning birinchi sahifasida chop etilgan bosh maqolalar), o'quvchining qiziqishini uyg'otgan (ya'ni eng ko'p ulashilgan) maqolalarni ko'rib chiqishni xohlagan. Shen olib borgan tadqiqot ommaviy kommunikatsiya sohasida faoliyat yuritayotgan mutaxassislar uchun foydali bo'ldi.

Jurnalistimiz. Press-relizlar yozish bilan cheklanib qolmaymiz. Tafsilotlarga, tahlillarga boy, ro'y bergan voqelikning mazmun-mohiyatini anglashga yordam beradigan maqolalar yozamiz. Korxona va tashkilotlarda chop etiluvchi ro'znomalar, ommaviy axborot vositalari uchun inson qiziqishlari, xohish-istaklari bilan bog'liq bo'lgan materiallar tayyorlaymiz. Ma'lum bir makon va zamonda sodir bo'ladigan voqea-hodisalar to'g'risida axborot beramiz. Ma'ruza matnlari, vizual mahsulotlar uchun ssenariylar, yillik yoxud boshqa turdagi hisobotlarni, jamiyat hayotiga daxldor masalalar, masalan, iqlim o'zgarishining turmush tarzimizga, ish faoliyatimizga ta'siri borasidagi tashkilotning rasmiy munosabatini tayyorlaymiz. Ijtimoiy tarmoqlarda e'lon qilish uchun postlar yaratamiz. Voqelikni hikoya qilib beramiz. Xabar tarqatamiz. Shaxsiy yoki ommaviy blog uchun materiallar, reklama, e'lonlar matnini yozamiz va h.k. Shu bois maqolalarning xulosa qismi qanday yozilishi to'g'risida tushunchaga ega bo'lish jurnalistik faoliyatimizda asqatishi mumkin.

O'quvchilar kirishdan ko'ra, maqolaning xulosasiga ko'proq e'tibor qaratishadi. Shen mushtariylarning yakuniy qismni o'qishiga 2 ta omil (maqolaning hajman kattaligi, uzunligi va keng jamoatchilik vakillari orasida ommalashgani) sabab bo'lishini ta'kidlaydi.

Maqola hajman katta, uzun bo'lsa... – mushtariy vaqtining tig'izligi, kamligi yoki boshqa omillar (masalan, telefon qo'ng'iroqlari, veb-saytlar, ijtimoiy tarmoqlardan kelgan xabarlar) e'tibor qaratish) sabab butun boshli matnni o'qib chiqmasligi mumkin.

Maqola jamoatchilik orasida ommalashgan bo'lsa... – maqola maqsadli auditoriyangizga kirmaydigan insonlar qo'lga ham yetib borishi mumkin. Dastlabki xatboshilarni ko'zdan kechirib bo'lgach, maqola bilan tanishib chiqishni to'xtatadi.

XULOSA QISMINI YOZISH NEGA MUHIM?

Mushtariylarning barchasi ham birdek maqolani boshidan oxirigacha o'qimasligi mumkin. Yakuniy qismgacha o'qib chiqqan mushtariyni qadrlang! Siz yozgan jurnalistik asarlarga ko'proq qiziqadi, taqdim etgan ma'lumotlaringizni eslab qoladi. Ulashadi va muhokama qiladi. "Vafodor" mushtariylar bevosita yoki bilvosita maqolaning internet qidiruv tizimlaridagi optimizatsiyasi yaxshilanishiga hissa qo'shadi. Shunday ekan, xulosaning yozilishi uslubini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish,

ta'sirchanligi, samaradorligini oshirish maqsadga muvofiq.

Shen Nobel mukofoti sovrindori, psixolog Deniyel Kaneman va uning hamkasblari odamlar voqelikning kulminatsion nuqtasi va so'nggi daqiqalariga qarab, xotira hosil qilishini aniqlaganini qayd etadi. Ushbu holatni "The Peak – End Rule" (kulminatsion nuqta va yakun) deb ataydi. Qoidani jurnalistik faoliyatga tatbiq etmaslik xato sanaladi.

Maqolaning qayta va qayta o'qilishi, esda qolarli chiqishi, qolaversa auditoriyaga hissiy jihatdan ta'sir ko'rsatish uchun xulosadan foydalanish mantiqqa to'g'ri keladi.

Yaxshi yozilgan maqolalarni, xulosalarni o'qish-o'rganish natijasida: siz qism, xatboshi yoki butun boshli matnning qanday qilib yakunlanishi, tugatilishi to'g'risida tushuncha hosil qilasiz. Faol mushtariylar qatlamiga qanday qilib ta'sir ko'rsatish mumkinligini o'rganasiz.

Eng yaxshi jurnalistik asarni qanday qilib yakunlash mumkin? Qaysi usullar sizga jarayonda yordam beradi? Quyida savollaringizga javob olasiz.

UNSURLAR VA USULLAR

Jeyson Shen eng yaxshi yozilgan maqolalarning xulosa qismi bilan qiziqdi. Asqatadigan usullarni o'rganib chiqdi. Xulosa qismini yozishda foydalaniladigan 23 ta tur bor ekanini aniqladi.

Ta'kidlash joizki, jurnalistik asar xulosa qismini yozishda ko'p qo'llanilayotgan tur "eng yaxshisi", degani emas. Qaysi unsur maqolangizga ham shaklan, ham mazmunan mos kelishi olib borayotgan tadqiqotingizga, tanlagan mavzugizga, mushtariylarga qanday kayfiyat ulashmoqchi ekaningizga bog'liq.

1. Oddiy, lekin keng tarqalgan, ko'p qo'llaniladigan, "moslashuvchan" unsurlar.

Mazkur unsurlarni deyarli har bir maqolaning xulosa qismida qo'llash mumkin:

1.1. **Umumlashtirish** – maqolada bayon etilgan fikrlar, faktlar umumlashtiriladi. Bir nechta gapdan iborat bo'lishi mumkin.

1.2. **Iqtiboslar** – uchinchi manba, odatda, suhbatlashilgan yoki maqola davomida ismi tilga olingan shaxsning so'zlari aynan keltiriladi.

1.3. **Savollar** – maqolaning qismlari, xatboshilarini bir-biriga bog'lab turadigan yoki yakuniy qismida beriladigan savol bo'lib, o'quvchini o'ylantiradi. Matnni oxirigacha o'qishga rag'bat uyg'otadi.

1.4. **Statistikalar** – mavzuga aloqador raqamlar yoki qiziqarli faktlar.

2. Tizimlashtirilgan, tafakkur qilishga chorlovchi unsurlar.

Ushbu guruhga kiruvchi unsurlar insondan ko'proq o'ylashni, fikrlashni talab etadi. Mulohaza yuritishga chorlaydi. Fikrlar tizimlashtirilgan holda bayon etiladi.

2.1. **Kirish** asosiy qismda bayon etilgan fikrlarga qayta murojaat qilish – kirish asosiy qismda bayon etilgan fikrlar yana bir bor takrorlanadi. Mushtariyning yodiga tushiriladi.

2.2. **Takrorlash** – maqolaning bosh g'oyasi bir yoki ikki jumlada aniq, ravshan bayon etiladi.

2.3. **Istiqbolni bashorat qilish** – amalga oshirilishi rejalashtirilgan ishlar yoki yaqin orada sodir bo'lishi kutilayotgan voqealiklar to'g'risida axborot beriladi.

2.4. **Oqibatlar** – "Istiqbolni bashorat qilish"ga o'xshab ketadi. Odatda, voqea-hodisalarning kelajakda qanday rivojlanishi

mumkinligini ko'rsatib beradi. Taxminlarga tayanadi. Ikki yoki undan ortiq ehtimoliy natijalarni o'z ichiga oladi.

2.5. **Taqqoslash** – maqola mavzusini yanada yaxshiroq ochib berish maqsadida boshqa bir g'oya, voqelik yoki shaxs bilan solishtirish yoki farqlarini ko'rsatishga xizmat qiladi.

3. Biron-bir xatti-harakatni sodir etishga chorlovchi unsurlar.

Ushbu guruhga kiruvchi unsurlar mushtariyni nafaqat o'ylashga, tafakkur qilishga, balki biron-bir xatti-harakatni sodir etishga chorlaydi.

1. **Maslahat va tavsiyalar berish** – muammoning hal etilishi, oqibatlari yaxshilanishi uchun muallif maslahat va tavsiyalar beradi.

2. **Turtki berish** – mushtariyga to'g'ridan to'g'ri murojaat qilinadi. Ma'lum bir xatti-harakatni sodir etishga chorlanadi. Tashabbuslarni qo'llab-quvvatlashga chaqiriladi.

3. **Mutasaddilar uchun yozilgan maslahat va tavsiyalar** – asosiy qismda bayon etilgan g'oyalar amalga oshishi uchun nimalar qilish kerakligi ta'kidlanadi. Maqola muallifi mutasaddilarga maslahat va tavsiyalar beradi.

4. Hissiy jihatdan ta'sir ko'rsatuvchi unsurlar.

Ushbu guruhga kiruvchi unsurlarda kirish va asosiy qismda bayon etilgan fikrlarni umumlashtirishdan ko'ra, mushtariyga hissiy jihatdan ta'sir ko'rsatishga ko'proq e'tibor qaratiladi. Kezi kelganda, bilimni oshirishga xizmat qiladi.

4.1. **Ijoiy ta'sir ko'rsatish** – asosiy qismda biron-bir muammo, bahsga sabab bo'luvchi masala ko'tariladi. Yakuniy qismda muallif mushtariyni ruhlantiradi. Faktlarga tayangan holda kelgusida ijoiy o'zgarishlar bo'lish ehtimoli yuqori ekanini aytib o'tadi. Harakat qilinsa, hukumat e'tibor bersa, muammo hal etilishi ta'kidlanadi.

4.2. **Salbiy ta'sir ko'rsatish** – asosiy qismda biron-bir muammo, bahsga sabab bo'luvchi masala ko'tariladi. Zudlik bilan hal etilmasa, yomon oqibatlarga olib kelishi mumkinligi ta'kidlanadi. Muallif mushtariylarni hushyor torttirishga harakat qiladi.

4.3. **Kengaytirish** – ko'tarilgan mavzuning tarixiy ildizlari mavjudligi (sirasini aytganda, bugunga kelib, paydo bo'lib qolmagani), jamiyatdagi ma'lum bir tendensiya, jarayonning uzviy davomi ekani ta'kidlanadi. Xulosa ham mazmunan, ham hajman kengayadi.

5. Murakkab, lekin jurnalistik asarni ham shaklan, ham mazmunan boyitishga xizmat qiluvchi unsurlar.

Ushbu guruhga kiruvchi unsurlar yuqori malakali mutaxassislar tomonidan yozilgan maqolalarda uchraydi. Xulosada qo'llash, ishlatish biroz qiyin, mushkuldek tuyulishi mumkin. Lekin ta'sirchanligi, samaradorligi yuqori bo'ladi.

5.1. **Hikoya** – biron-bir voqelik boshidan oxirigacha obrazlar vositasida ochib beriladi.

5.2. **Parcha** – sodir bo'lgan voqelikning ma'lum bir qismi, parchasi, bo'lagi yoritiladi. Qahramonlar soni bir yoki undan ortiq bo'lishi mumkin.

5.3. **Dialog** – ikki kishi o'rtasida kechgan suhbat gazetaga qatorma-qator joylashtiriladi. Suhbatdosh fikrini keltirishdan avval tire (–) qo'yiladi.

5.4. **"Boshqa tomondan olib qaraganda..."** – ilgari surilgan asosiy g'oya yoki fikrga qarama-qarshi nuqtayi nazardan yondashiladi. Mushtariyga ko'tarilgan

mavzuni turli tomondan ko'rib chiqish imkonini taqdim etadi. Muallifga xolislik tamoyiliga amal qilishda yordam beradi. Odatda, "Hissiy jihatdan ta'sir ko'rsatishga xizmat qiluvchi unsurlar" bilan birga ishlatiladi.

6. Noodatiy, mushtariyni hayratga soluvchi, o'ylantiruvchi unsurlar.

Ushbu guruhga kiruvchi unsurlar yakuniy qismning oxirgi jumllarida aks etadi.

6.1. **Xulosasiz "xulosa"** – umumlashtirish, so'ngso'zlarisiz to'satdan maqolaga yakun yasaladi. Maqola davom etishi kutilayotgandek tuyuladi.

6.2. **Shaxsiy munosabatini bildirish** – mavzu bo'yicha muallifning fikri, qarashlari, munosabati, hissiyotlari, kuzatuvi aks ettiriladi.

6.3. **Ochiq qoldirish** – maqola aniq bir xulosasiz yakunlanadi. Mushtariy o'ylashga, savol berishga, qaror chiqarishga, fikrlashga undaladi. Maqola tugaydi, lekin mavzu atrofidagi fikrlar, bahs-munozaralar, tugamaydi.

6.4. **"Zarba" berish** – ko'pincha bitta jumladan iborat bo'ladi. Esda qolarli, hissiy yoki mafkuraviy jihatdan zarba bera oladigan so'nggi jumla sanaladi. Hayratlantirish, o'ylantirish, maqolada ilgari surilgan asosiy g'oyani mushtariy xotirasiga "mixlab qo'yish"ni maqsad qiladi. Jeyson Shen maqolalarni obyekt (shaxs yoki narsa-buyum)lar va g'oyalarga asoslanganiga qarab farqlash mumkinligini aniqlagan. Shuningdek, xulosada foydalanish mumkin bo'lgan unsurlar maqolada ko'tarilgan mavzuga qarab o'zgarishi haqida ham yozadi.

1. **Obyektga yo'naltirilgan maqolalar** – jurnalist nigohini ma'lum bir shaxs, tashkilot yoki voqeikka qaratadi. Masalan, "Fast Company" nashri "Pinterest", "Giphy" singari kompaniyalarni tanlab olib, ularning tarixi, bugungi kundagi faoliyati, yutuq va kamchiliklari haqida maqolalar tayyorlaydi.

"New York Times"da chop etilgan tahririyat nuqtayi nazariga mos kelmaydigan maqolada AQSh Milliy futbol ligasi sobiq o'yinchisi Kolin Kapernik tomonidan o'tkazilgan namoyishni yoqlovchi, xayrixohlik qiluvchi shaxsga so'z berilishi mumkin.

Obyektga yo'naltirilgan maqolalarning xulosa qismida ko'pincha quyidagi unsurlardan foydalaniladi:

1. Ochiq qoldirish.
2. Parcha.
3. Shaxsiy munosabatini bildirish.
4. Dialog.
5. Oqibatlarini ko'rsatish.
2. **G'oyaga asoslangan maqolalar** – ko'pincha noaniq, mavhum mavzularga murojaat qilinadi. Misol tariqasida urfga kirgan, keng tarqalgan rasm-rusum yoki xatti-harakatlar, ma'lum bir mavzuga doir fikrlar, qarashlar, ko'rsatma, maslahat, yo'l-yo'riq, tavsiyalarni keltirish mumkin.

Deylik, "The Atlantic"da so'nggi vaqtlarda ko'p uchrayotgan holatlar, xususan ish joyida ayol xodimaga boshqa bir ayol xodima tomonidan o'tkazilayotgan bosim, tahdidlar haqida maqola chop etildi. Unda bir nechta kompaniyalar va insonlar tilga olinadi. Ro'y bergan voqealarni, boshdan kechirganlarini hikoya qilib beradi. Ammo ko'tarilgan mavzu ma'lum bir obyektga yo'naltirilgan bo'ladi. Keng tarqalgan, "urf"ga kirgan holat haqida.

G'oyaga asoslangan maqolalar xulosa qismida ko'proq quyidagi unsurlardan foydalaniladi:

1. Xulosasiz "xulosa".
2. Amaliy tavsiyalar.
3. Turtki berish.
4. Takrorlash.
5. Mutasaddilar uchun yozilgan maslahat va tavsiyalar.

Jeyson Shenning "Medium"da nashr etilgan maqolasida yakuniy qismda qo'llash mumkin bo'lgan unsurlar to'g'risida batafsil ma'lumot berilgan. Iltifonlarimiz kelgusida ijodiy faoliyatingizda samara beradi, asqatadi, degan umiddamiz.

Kim XARRISON,
"Cutting Edge PR" sayti muharriri
(ingliz tilidan Ulug'bek SHAROBIDDINOV tarjimai)

Ta'lim

Vatanparvarlik mas'uliyatli, faol va ongli fuqaroni shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan yuksak ma'naviy qadriyatdir. U yoshlarda o'z yurtiga muhabbat, xalq va davlat oldidagi burchni anglash, milliy qadriyatlar va an'analarga hurmat tuyg'ularini qaror toptiradi. Shu ma'noda ta'lim tizimida vatanparvarlik tarbiyasini samarali yo'lga qo'yish jamiyat barqarorligi va taraqqiyotini ta'minlaydigan muhim omillardan biri hisoblanadi.

YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Vatanparvarlik – bu shaxsning o'z Vatani, ona tili, tarixi, madaniyati va xalq taqdiri bilan chambarchas bog'liqlik hissi. U yoshlarda milliy g'ururni uyg'otadi, fuqarolik mas'uliyatini kuchaytiradi hamda tarixiy xotirani mustahkamlaydi. Ayni paytda zamonaviy jamiyat sharoitida vatanparvarlikni biryoqlama tushunchalar yoki shiorbozlik asosida emas, balki ongli, muvozanatli va tanqidiy fikrlashga tayanadigan tarzda tarbiyalash zarur. Faqat shu yo'l bilan yoshlar o'z Vatanga sadoqatni chuqur anglab yetadigan, mustaqil fikrlay oladigan shaxs sifatida kamol topadi.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yoshlarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishda faqat an'anaviy dars usullari bilan cheklanib qolish yetarli emas. Bu jarayonda interaktiv ta'lim, loyiha asosida o'qitish, hayotiy misollar va amaliy faoliyat alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, kursantlarni jamiyat hayotiga daxldor voqealarga faol jalb qilish orqali ularda fuqarolik pozitsiyasi, mas'uliyat hissi va tashabbuskorlik rivojlanadi.

Bu jarayonda milliy tarix va madaniyatni xolis, haqqoniy va qamrovli tarzda yoritish ham muhim

tarbiyaviy ahamiyatga ega. Chunki tarixiy voqealarni turli nuqtayi nazarlar asosida tahlil qilish yoshlarda tahliliy fikrlash madaniyatini shakllantiradi. Bu esa, o'z navbatida, milliy o'zlikni chuqur anglash bilan birga boshqa xalqlar va madaniyatlarga nisbatan hurmat va bag'rikenglik tuyg'ularini ham qaror toptiradi.

Sinfdan tashqari mashg'ulotlar, muzey va tarixiy qadamjolariga sayohatlar, jamoat arboblari, faxriylar va mutaxassislar bilan uchrashuvlar yoshlarning Vatan bilan bog'liq tuyg'ularini yanada chuqurlashtiradi. Bunday tajribaviy ta'lim shakllari nazariy bilimlarni hayot bilan uyg'unlashtirib, yoshlarda faxr, sadoqat va Vatan oldidagi burchni his etish tuyg'usini kuchaytiradi.

Bugungi kunda axborot makonida raqamli fuqarolik masalasi ham alohida ahamiyat kasb etmoqda. Yoshlarni axborot manbalarini tanqidiy baholashga, ijtimoiy tarmoqlarda mas'uliyatli munosabatda bo'lishga o'rgatish vatanparvarlik tarbiyasining ajralmas qismiga aylanmoqda. Bu orqali ularda xolis fikr, axborot xavfsizligiga ongli munosabat va jamiyat oldidagi javobgarlik hissi shakllanadi.



Vatanparvarlikni targ'ib etuvchi ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar ham katta tarbiyaviy kuchga ega. Agar bunday tadbirlar mazmunli, fikr uyg'otuvchi va yoshlarni faol ishtirokka chorlaydigan shaklda tashkil etilsa, ular milliy birdamlikni mustahkamlab, jamiyatga daxldorlik hissini yanada kuchaytiradi.

Shu bilan birga, vatanparvarlik tarbiyasining samaradorligi ko'p jihatdan o'qituvchining kasbiy mahorati, ma'naviy salohiyati va shaxsiy namunasiga bog'liq. Shu sababli pedagoglar doimiy ravishda o'z bilim va ko'nikmalarini oshirib borishi, zamonaviy ta'lim usullarini o'zlashtirishi hamda ochiq, ishonchli muloqot muhitini yaratishi zarur. O'quv dasturlari esa jamiyatdagi islohotlar, zamon talabi va yoshlarning ehtiyojlariga mos ravishda muntazam yangilanib borishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash uzluksiz va kompleks jarayondir. Innovatsion pedagogik yondashuvlar, ochiq muloqot, amaliy faoliyat va doimiy tahlil orqali bu jarayonni yanada samarali qilish mumkin. Ana shundagina Vatan taqdiriga befarq bo'lmagan, ongli, mas'uliyatli va fidoyi avlodni tarbiyalashga erishiladi.

Podpolkovnik Botir SOBIROV,
Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti katta o'qituvchisi

Armiya va tarbiya

VATANPARVARLIK

VA HAYOT SABOQLARI



Kekasalar tajribasi, turli lavomizdagi rahbarlarning xizmat faoliyati yoshlar uchun hayot maktabi. Ayniqsa, ularning qimmatli pand-nasihatlar, hayot saboqlari yoshlarning shijoati bilan birlashsa, jamiyatni rivojlantiruvchi kuchga aylanadi. Shu bilan birga, bunday uchrashuvlar yoshlarda vatanparvarlik tuyg'usini mustahkamlab, hayotga to'g'ri yondashuvni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mudofaa vazirligiga qarashli Qashqadaryo viloyati Nishon tumani va Andijon viloyati Xonobod shaharlarida joylashgan harbiy qismlarda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 34 yilligi va "Vatanparvarlik oyligi" munosabati bilan o'tkazilgan uch avlod hamda rahbar va yoshlar uchrashuvlari ham shu jihati bilan qimmatli bo'ldi.

Qurolli Kuchlar faxriylari, hokimlik va hududiy huquqni muhofaza qiluvchi davlat organi vakillari ishtirokida tashkil etilgan tadbirlarga "Vatan tayanchi" otryadi a'zolari, o'quvchilar va profilaktik ro'yxatda turadigan yoshlar taklif qilindi. Bu esa tadbirlarning qamrovi keng va mazmunan boy o'tishiga xizmat qildi.

Tadbirida so'zga chiqqanlar, yoshlarga o'zlarining hayotiy tajribasi, xizmat jarayonlarida erishgan yutuqlari, Vatan himoyasidagi mas'uliyatli vazifalar, milliy armiyamizda shu kungacha amalga oshirilgan islohotlar, harbiy xizmatchilarimizning xalqaro maydonda qo'lga kiritayotgan yutuqlari haqida atroflicha fikr yuritishdi. Shuningdek, bugun mamlakatimizda yosh avlodning bilim olishi, kasb egallashi va munosib hayot kechirishi uchun yaratib berilayotgan shart-sharoitlar xususida ham alohida to'xtaldi.

Samimiy va ochiq muloqot tarzida o'tgan tadbirida yoshlar o'zlarining qiziqtirgan savollariga tadbir mehmonlaridan batafsil javob oldi.

Xulosa qilib aytganda, bunday tadbirlar yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirib, ularni sog'lom hayot tarziga, Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugunimiz qahramonlari

Sport bir necha turga bo'linadi. Ularning orasida yengil atletika alohida o'rin tutadi. Biroq ushbu sport turining nomlanishi ko'pchilikda negadir osondek taassurot qoldiradi. Ammo uning mashaqqatlari qolgan barcha sport turlaridan og'ir bo'lsa og'irki, hech yengil emas. So'zimiz isbotini Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi sportchisi kichik serjant Bobur Shokirjonov ko'p bora ta'kidladi.

YENGIL ATLETIKANING OG'IR YUKI



"Jag är en sann patriot från Uzbekistan" säger Bobur Shokirjonov, spjutkastaren som blev den förste IAAF-stipendiaten på HPC i Växjö.

Sportning yakkakurash va og'ir atletika turlari bilan professional darajada shug'ullangan, so'ngra ma'lum sabablar bilan yengil atletika yo'nalishida xalqaro musobaqalar g'olibiga aylangan qahramonimizning so'zlariga quloq tutamiz.

YAKKAKURASHDAN NAYZA ULOQTIRISHGA

– Mendan ko'pchilik "Sportga, ayniqsa nayza uloqtirishga qay yo'sinda kelib qolgansiz?" deb so'raydi. Men esa ularga hazil aralash "Sportchi bo'lib tug'ilganman" deyman. Dadam ham, onam ham xalqaro toifadagi sport ustalari. Qolaversa, akam ham dzyudo bo'yicha jahon chempionatlari ishtirokchisi. O'zim 2007-yilgacha bir necha bor belbog'li kurash va dzyudo bo'yicha O'zbekiston chempioni bo'lganman. Baxtga qarshi, ba'zi sabablarga ko'ra, og'ir yuklamalar bilan ishlamaslikka to'g'ri keldi. Shundan keyin oradan vaqt o'tib, nayza uloqtirish bilan shug'ullanishni boshladim.

HARBIY XIZMATGA YO'L

– Bolaligida harbiy bo'lishni orzu qilmagan yigit bo'lmasa kerak. Xuddi shu singari men ham o'zimni harbiy libosda tasavvur qilardim. Vaqtlar o'tdi, shukurki,

bugungi kunda o'ylagan niyatlarim amalga oshib, egnimga harbiy libos kiydim. Unga munosib bo'lishga doim harakat qildim. Avvalo, men uchun harbiylik kasbi – g'urur va iftixor. Kimlar uchundir hozirgi so'zlarim balandparvoz gapdek tuyular, ammo harbiy ekanimdan faxrlanaman. Harbiy sportchi bo'lish hammaga ham nasib etavermaydigan baxt. Kamsonli baxtlilar orasida borligimdan xursandman.



RAQOBAT BOR JOYDA NATIJA BO'LADI

– Raqobat barcha sohada bo'lgani kabi sportda ham bo'lishi tabiiy. Raqobat bor joyda o'sish bo'ladi. Albatta, u sog'lom bo'lishi kerak. Shu o'rinda bir misol keltirib o'tishni joiz deb bildim. Mashg'ulotlarda Ivan Zaysev bilan kimo'zarga bellashardik. Aslida Ivanning otasi ham nayza uloqtirish sporti bilan shug'ullangan. Qolaversa, Ivan mashg'ulotlarni mendan ancha oldinroq boshlagan. Ammo o'zaro bahslarimizdagi uning urinishlari mag'lubiyat bilan yakunlanaverardi. Shunda Ivan o'z ustida ishlashni kuchaytirdi. Bir haftada bajarilishi kerak bo'lgan yuklamalarni bir-ikki kunda bajarardi. Oradan bir necha yil o'tib, Ivanning natijalari yaxshilana boshladi va men bellashuvda unga mag'lub bo'ldim. Qarabsizki, men ham undan o'zish uchun kuchaytirilgan mashg'ulotlarni boshladim...

Sog'lom raqobatda sportchi toblanadi. O'z ustida ishlaydi. Oxirda natija yaxshilanadi. Ancha yillar Ivan Zaysev bilan yurtimiz va xalqaro musobaqalarda birinchi va ikkinchi o'rinni band etib keldik. Mana, nima uchun raqobat kerak...

MURABBIYLIK FAOLIYATI

– 2008-yili o'smirlar o'rtasida 66,03 metr masofaga nayza uloqtirib, Osiyo chempioni bo'lganman. 2015-yili Xitoyda bo'lib o'tgan kattalar o'rtasidagi Osiyo chempionatida 79,09 metr masofani zabt etib, 40 ta davlat orasida 2-o'rinni egalladim. Faoliyatim mobaynida ikki marotaba Olimpiadada qatnashdim. Yurtimizdagi bir qancha chempionat va musobaqalarda yuqori o'rinlarni egallab kelayotgan sportchining katta sport bilan xayrlashishi oson emas. Tushkunlik holati ham bo'lmadi, deymayman.

Ammo sport mening taqdirimga aylanib ulgurgan ekan. Faoliyatimni murabbiylik bilan almashtirishga majbur bo'ldim. O'zim maqsad qilib erisha olmagan marralarni shogirdlarim bilan zabt etishni niyat qildim. Shogirdlarimga doim bitta fikrni singdirib kelaman: avvalo, salomatligingga mas'ul bo'l! O'zingni asra! Sportchi sifatida sog'lom bo'lib, natijalarni zabt etsang, seni qo'llab-quvvatlovchilar ko'p bo'ladi. Sog'lig'ingdan ajralgudek bo'lsang, hech kim emassan. Shuning uchun jarohat olmaslikka harakat qil. Odam anatomiyasini yaxshi o'qigin, deyman.

"MEN O'ZBEKISTONLIK HAQIQIY VATANPARVARMAN!"

– Xalqaro yengil atletika assotsiatsiyasi dasturiga muvofiq, 2013-yildan 2014-yilgacha Shvetsiyada bir yil yashab, mashg'ulotlarni davom ettirganman. Sportchi o'zida yuqori tajribani to'plash uchun, albatta, xalqaro miqyosdagi mashg'ulotlarda ishtirok etishi kerak. Imkoniyatlarimni kengaytirish va ko'nikmalarimni boyitishda xorijda olib borilgan mashg'ulotlar o'z natijasini berdi. Shaxsiy rekordlarim yuqoriladi.

Har narsaning oxiri bo'lgani kabi Xalqaro yengil atletika assotsiatsiyasi dasturi ham o'z nihoyasiga yetdi. Vatanga qaytish onlari yaqinlashgan paytda meni bir yil davomida kuzatgan shvetsiyalik mutaxassislar taklif bilan chiqdi. Ular menga Shvetsiya fuqaroligi, ijtimoiy ta'minot va sportchilik faoliyati yakunlangach murabbiylik qilishim uchun keng imkoniyat yaratib berishini bir necha bor ta'kidladi. Ammo men keskin inkor etdim. Ular oldiniga ishonmadi. Meni o'z fikrimdan qaytirishga ko'p harakat qilishdi.

Hatto mahalliy nashrlarning birida mening suratimni chiqarib, "Men O'zbekistonning haqiqiy vatanparvariman!" sarlavhasi ostida maqola ham chop etishdi. Haqiqatan ham yurtimni yaxshi ko'raman. Vatanimga sadoqat bilan xizmat qilaman!

Sherzod SHARIPOV
"Vatanparvar"

VAZNNI ME'YORDA USHLASH JUDA MUHIM

– Yengil atletikaning nayza uloqtirish yo'nalishida boshqa sport turlari kabi raqiblar vazni teng bo'lishi muhimmas. Ammo sportchining o'zi uchun ortiqcha vazn faqat zarar. Agar vazn tana balandligiga nomutanosib bo'lsa, ko'zlangan natijaga erishish ancha mushkul. Gap inson tana vazni haqida ketganida aslida sportchi bo'lmagan insonlar uchun ham vaznning me'yori bo'lgani yaxshi. Buning uchun sog'lom turmush tarziga, ovqatlanish ratsioniga amal qilish maqsadga muvofiq bo'lardi. Eng asosiysi, doimiy harakat qon aylanish tizimining bir maromda bo'lishini ta'minlar ekan, yurak urishi, nafas yo'llari va boshqa ko'plab inson tana a'zolarining sog'lom ishlashiga zamin bo'ladi.



YAKUNIY BAHS — NATIJA

O'zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetida umumiy o'rta ta'lim muassasalariga birlashtirilgan chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik – "Vatan tayanchi" otryadi rahbarlari orasidan ilg'or, tashabbuskor hamda fan doirasida yuqori pedagogik mahoratga ega bo'lganlarini aniqlash, ularning mehnatini munosib rag'batlantirish maqsadida "Eng ilg'or chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik – "Vatan tayanchi" otryadi rahbari" ko'rik-tanlovining yakuniy bosqichi o'tkazildi.

Unda viloyat va tumanlardagi umumta'lim maktabida faoliyat yuritayotgan chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani o'qituvchilari hamda "Vatan tayanchi" otryadi rahbarlari o'zaro bahs olib bordi. Tanlov ikki bosqichda o'tkazildi. Dastlab ishtirokchilar Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan amaliy sinov mashg'ulotlari bo'yicha o'zaro bellashdi. Ikkinchi kuni fan rahbarlari tanlangan mavzular bo'yicha sinov mashg'ulotiga kirishdi. Shart davomida har bir ishtirokchi belgilangan vaqt mobaynida o'zlarining bilim darajasini o'qituvchilarga qay darajada yetkazishi, ularni mashg'ulotlarga jalb eta olishi hamda pedagogik mahorati, metodikaga kiritgan zamonaviy yondashuvlari baholab borildi. Qizg'in bahslarga boy bo'lgan tanlov yakuniga ko'ra, 1-o'rin Xorazm viloyati, Tuproqqal'a tumanidagi 51-umumta'lim maktabining chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani o'qituvchisi zaxiradagi podpolkovnik Xabibullo Eshchanovga nasib etdi. Toshkent shahri Uchtepa tumanidagi

14-umumta'lim maktabining chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani o'qituvchisi zaxiradagi leytenant Nodir Ahmedov ikkinchi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Nukus shahridagi 51-umumta'lim maktabining chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani o'qituvchisi zaxiradagi leytenant Shadimurot Janekeyev 3-o'rinni egalladi. Ta'kidlash lozim, mamlakatimiz umumta'lim maktablarida chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani

o'qituvchilari yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda xalqimiz tarixi va ma'naviy qadriyatlariga hurmat tuyg'usini shakllantirishga, Vatan himoyasi, uning milliy xavfsizligi, hududiy yaxlitligi va suverenitetini ta'minlash hissinini mustahkamlab, yosh avlodni harbiy xizmatni o'tashga tayyorlash yo'lida samarali faoliyat yuritmoqda. Mazkur tanlov esa chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani o'qituvchilarining bu boradagi bilim hamda malakalarini sinovdan o'tkazib, munosib rag'batlantirishga, tajribalarini ommalashtirishga yo'naltirilgani bilan ahamiyatli bo'ldi.

Sherzod EGAMBERDIYEV,
"Vatanparvar"

Bugunning gapi

Z va ALFA avlodlari. Ular kimlar?

Barcha uchun bugungi avlodning ajdodlarga qanchalik munosib ekani qiziqarli, chunki jamiyat taraqqiyoti har bir davrda yangi avlodlarning shakllanishi bilan uzviy bog'liq. Shu bois yosh avlodning ma'naviy kamoloti, bilim va dunyoqarashi jamiyatning ertangi taraqqiyotini belgilab beruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

ALFA avlodi 2013-yildan keyin tug'ilganlar.

ALFA avlodi texnologiya bilan birga tug'ilayotgan avlod hisoblanadi. Ular planshet, sun'iy intellekt, onlayn ta'lim muhitida o'smoqda. **Bu avlod dunyoqarashining shakllanishida quyidagilar asosiy o'rin tutadi:** Muammolarga innovatsion yondashuv, vizual va interaktiv usullar orqali bilim olish, dunyoga ochiq, millat va chegara tushunchalariga boshqacha qarash. Bu avlodda yoshlikdan mustaqil qaror qabul qilishga moyillik borligi amalda isbotlangan. Shu bilan birga, ALFA avlodini to'g'ri tarbiyalashda ota-ona va ustozlarning mas'uliyati yanada ortadi.

Har ikki avlod uchun ham oila, ta'lim muassasalari va ijtimoiy muhit asosiy tarbiya manbai hisoblanadi. Milliy qadriyatlar, jasorat, kuchli iroda, ma'naviy tarbiya va tanqidiy fikrlashni uyg'unlashtirish yoshlarni barkamol shaxs qilib voyaga yetkazishda muhim ahamiyatga ega.

Z va ALFA avlodlari kelajak jamiyatining asosiy harakatlantiruvchi kuchidir. Ularning dunyoqarashi zamonaviy, ochiq va texnologiyalarga yo'naltirilgan. Shu bois bu avlodlarga to'g'ri yo'l ko'rsatish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, vatanparvarlik doirasida tarbiya berish jamiyat oldidagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Z va ALFA avlodlari dunyoqarashi shakllanishida jonli muloqot, kitob, milliy qadriyatlar, mentalitet, ota-ona-farand, ustoz va shogird, bobo-buvi-nevara, jamiyatdagi tarbiya kabi uyg'unlikdagi munosabatlar muhim o'rin tutadi.

Podpolkovnik V. MADRAHIMOV,
Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti siki boshlig'i



Surat sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi.

Xotira

“BEDARAK YO‘QOLGAN JANGCHI” QISMATI

Ilmiy ishim bevosita Ikkinchi jahon urushi bilan bog‘liqligi bois bahsli tadqiqot talab etadigan ma‘lumotlarga ko‘p bora duch kelganman. Shulardan biri, ayniqsa esda qolarli bo‘lgan edi. Ikkinchi jahon urushida halok bo‘lgan farg‘onaliklar haqidagi arxiv materiallarini ko‘zdan kechirayotib, bir inson haqidagi ikki hujjat diqqatimni tortdi. Ikki hujjat ham ayni bir shaxsga, shuning barobarida bir-birini to‘ldiradigan bu ma‘lumotlar ochig‘i diqqatimni tortdi.

Jang maydonlarida yo‘qotilgan talafotlarni hisob qaydlari bo‘lgan mazkur hujjatlarning birida 1941-yil 12-dekabrda harbiy xizmatga chaqirilgan farg‘onalik bedarak yo‘qolgan askar haqida ma‘lumotlar keltirilgan edi. Unda qayd etilishicha: “94-alohida o‘qchi brigada askari Husanov Rayimjon – 1914-yilda tug‘ilgan. Millati tojik. Urushga qadar Farg‘ona viloyati Farg‘ona tumani, Log‘on qishlog‘i, “Shorts” kolxozida kolxozchi bo‘lib mehnat qilgan. Bedarak yo‘qolgan. So‘nggi bora 1942-yilning 11-dekabr oyi hamda 1943-yilning 20-yanvari oralig‘idagi ma‘lumotlarda qayd etilgan”.

Avvaliga, yanglish ma‘lumot bo‘lsa kerak, deb o‘yladim. Ammo harbiy hisobotda bunaqangi xatolar bo‘lmaydi. Axir gap bir inson hayoti ustida ketyapti. Bunaqangi qo‘pol xato qilishga hech kimning haqqi yo‘q. Qolaversa, bunday hujjatlar yuritilishi doimiy nazorat qilib borilgan. Kamchiliklari to‘ldirilgan, tuzatishlar kiritilgan.

O‘zimni o‘zim aldashim xato ekanini tushunib yetganimdan so‘ng shubha va gumonlarimni oydinlashtirishga qaror qildim. Qishlog‘imga borganda ushbu inson haqida uning oila a‘zolari bilan suhbatlashishga, ulardan imkon qadar ko‘proq ma‘lumot yig‘ishga, o‘zim topgan ma‘lumot bilan solishtirishga ahd qildim.

Nihoyat, o‘sha kun keldi. Ish va o‘qishni yakunlab, dam olish kuni uyga qaytdim. Shu bahonada vaqt ajratib, Rayimjon Husanov haqidagi ma‘lumotlarni topishga muvassar

bo‘ldim. Haqiqatan ham men topgan ma‘lumot to‘g‘ri chiqdi. Faqatgina uning “Urushda bedarak yo‘qolgan” degan xulosasi bundan mustasno edi. Buning sababini har kim o‘zicha tushuntirdi. Mening ham bunga o‘z fikrim bor, albatta.

* * *

Ma‘lumki, XIX – XX asrda o‘zaro ichki nizolar va doimiy urushlardan charchagan qorateginliklar (*hozirgi Tojikiston hududidagi joy nomi*) Farg‘ona vodiysiga ko‘chib o‘tadi. Ular dastlab bo‘sh va o‘zlashtirilmagan yerlarni egallab, muqim hayot kechira boshlaydi.

Ana shunday oilalardan biri Vodil hamda Uchqo‘rg‘on shaharlari oralig‘idagi hududda o‘zining yaqin qarindoshlari bilan to‘xtab, muqim hayot kechira boshlaydi. Ammo ularning qachon, kimlar bilan kelgani haqida aniq ma‘lumot bizgacha yetib kelmagan.

Shu taqlid kunlar o‘tadi. Tinch va mashaqqatli hayot boshlanadi. 1914-yilning ana shunday kunlaridan birida Husan ota xonadonida yana chaqaloq ovozi yangraydi. Bu gal ham Husan otaga Yaratgan yana o‘g‘il farzand ato etdi. Yaxshi niyat bilan unga Rayimjon deb ism qo‘ydi.

Rayimjonni hayot erta ulg‘aytirdi. Chunki uning bolaligi va yoshligi o‘lkada sovet hokimiyatining zo‘rma-zo‘raki o‘rnatilishi-yu, ular tomonidan amalga oshirilgan qator xunrezliklar va tuzatib bo‘lmas xatolarga boy davrga to‘g‘ri kelgan edi.

Endigina barchasi asta-sekinlik bilan iziga tushay deganida urush boshlandi. Odamlar endi harbiylashtirilgan hayotda

yashashga mahkum edi. Barcha bir tan-u bir jon bo‘lib, g‘alaba uchun erta-yu kech mehnat qila boshladi. Qanchadan qancha yosh, norg‘ul va botir yigitlar esa urushga safarbar etildi.

“Elga kelgan to‘y” Husan ota xonadonini ham chetlab o‘tmadi. 1941-yilning dekabr oyida Rayimjonga ham harbiy xizmatga chaqiruv xati keldi.

Husanov Rayimjon falakning gardishi bilan Malaya Zemlya uchun bo‘lgan janglarda o‘z brigadasi tarkibida dushmanga qarshi kurashadi. Qahraton qish, ozuqa yetishmasligi vaziyatni battar chigallashtirib yuboradi. Boz ustiga sovuq ta’siri askarlarning suyak-suyagigacha yetib borgandi. Ayrim askarlar birin-ketin sovuqda ochlikdan halok bo‘la boshladi.

Ana shunday og‘ir vaziyatda ham Rayimjon o‘zini yo‘qotib qo‘ymadi. Imkon boricha, sovuqda muzlab qolmaslik uchun, okop ichida bo‘lsa ham, jismoniy harakatlarni takrorlab turardi. Bu orqali oz bo‘lsa-da, joni huzur qilardi. Lekin tabiat oldida inson doim ojiz. Sovuq ham Rayimjon bilan kuch sinashayotganday edi, go‘yo. Lekin askar na fashist bosqinchilariga, na sovuqqa taslim bo‘lgisi yo‘q.

Bu paytda sovuqda qolgan ayrim guruhlarini uylariga, sog‘liqlarini tiklash uchun yuborish ishlari boshlandi. Bu xushxabar Rayimjonga ham quvonch bag‘ishladi. Urush boshlanganidan beri tinch va musaffo osmonni, go‘zal tabiatni juda-juda sog‘ingan edi. Bu esa qora tutun va izg‘irinli sovuq orasida qolgan Rayimjon va uning quroldosh do‘stlariga nihoyatda zarur edi.

1943-yilda Rayimjon ham uyga qaytadi. Ota-onasi-yu jigarlari uning sog‘-omonligini ko‘rib, quvonishadi, diydoriga to‘yishadi. Sog‘lig‘i biroz tiklangach, yana urushga borishga ahd qilib, ariza berishga qaror qildi. Biroq uni kolxoz raisi o‘z yonida olib qoladi.

Taqdir qahramonimizni turfa sinovlar bilan sinadi. Shunda ham uning irodasi bukilmasdi. Mabodo zangori ekran orqali efirga uzatiladigan Ikkinchi jahon urushi haqidagi biror ko‘rsatuvga ko‘zi tushsa, albatta, harbiy xizmatdagi davrini eslar, farzandlariga o‘zi, ko‘rgan-kechirganlari haqida hikoya qilib berardi. Ammo hayot va oila, ishdan ortib o‘zi, quroldosh do‘stlari haqida so‘rab-surishtira olmadi. Shu tufayli bo‘lsa kerak, unga qishloqdoshlari qatori urush faxriysi, jangovar orden va medallar sohibi degan e’tirof nasib etmadi.

Tabiatan og‘ir-bosiq, mehnatkash va tirishqoq bu insonni yer ham ulug‘lar edi, go‘yo. Yerga nimaiki qadamasin, hosili o‘ylaganidan ziyoda bo‘lardi. Usta dehqon, mohir sohibkor edi u. Uni yaqinlari Rayim polvon deb atashardi. Buning ham o‘ziga yarasha sababi bor. Kasallikdan aziyat chekib, yotib qolmadi, shunda ham turib, mehnat qildi, qaddini bukmadi, farzandlari-yu nabiralarning baxt-u kamolini o‘yladi. Ammo umri farzand-u nabiralarning to‘y-u tomoshalarini ko‘rishga qisqalik qildi.

Endi og‘zi oshga yetganda, bu foni dunyoni tark etdi. Bu men yuqorida arxiv materiallarini titkilay turib topgan inson, hujjatlarda bedarak yo‘qolgan, shu tufayli biror marotaba na mukofot, na bir tuhfa olish nasib etmagan Husanov Rayimjon – mening bobom va uning hayot yo‘li haqida edi.

Rayimjon Husanov singari o‘g‘lonlarning aziz nomlari hech qachon o‘chmaydi. Aksincha, barcha uchun ibrat va namuna bo‘lib xizmat qiladi.

Abduhoshim MAHAMADOV,
Farg‘ona davlat universiteti
magistranti



O'zbek fe'li

Qorli kunlar boshlandi.
Bog'lar ichida oppoq to'n
kiygan daraxtlar xuddi
donishmand mo'ysafidlar
kabi mahzun va o'ychan...
Bo'g'otlarda qotgan sumalaklar
borliqni yanada sirliroq
ko'rsatadi. Qorni sevguvchi
archa-yu qarag'aylar qishning
o'ktamligini bor bo'yicha
atrofga ko'z-ko'zlayotganday,
go'yo.

YILNI KUZATAYOTIB...

Aslida kumush faslning fazilatlarini ko'p. O'tayotgan yilni tarix sari kuzatib, kelayotgan yilni qarshi olarkanmiz, ayni kezlardagi ajib kayfiyat bu fazilatlarini yanada bezatadi.

Yil qanday o'tdi, deya o'ylay boshlaymiz beixtiyor. Turli hayajonli voqea-hodisotlar ko'z o'ngimizda birma-bir jonlanadi. Ushbu yil mobaynida yurtimiz bo'ylab turli sohalarga oid muvaffaqiyatlar doimiy e'tirof etib borildi. Sportda, san'at-u adabiyotda, tibbiyot va ta'limda, iqtisod va siyosatda...

Vatan tinchligini saqlashga va iqtisodiyotni mustahkamlashga doir hujjatlar ko'p bora imzolandi. O'zbek san'ati va adabiyoti kirib borgan ellar sahnalarida yurtimiz madhiyasi tez-tez yangrab turdi. Tibbiyot va ta'limdagi yangiliklar yorug' kelajak sari borar manzillarmizni bir qadar yaqinlashtirdi.

Vatan himoyachilari, qo'riqchilari, posbonlari yanada jipslashdi, qo'llaridagi Tinchlik Tug'ini yanayam balandlatishdi, el ishonchi ularga tayanch bo'ldi. Sportchilarimiz chet davlatlarda Vatan bayrog'ini qayta-qayta ko'tardi.

Yurtimizda zamonaviy kipersport shakllanib, "UzCyber" jamoasi Janubiy Koreya va Germaniya vakillarini mag'lub etdi. Kurashda, boksda, futbol va shaxmatdagi g'oliblar yilimizning yangi qahramonlariga aylandi.

Ushbu yilning oktabriga qadar MDH o'yinlarida sportchilarimiz 25 ta oltin, 33 ta kumush, 609 ta bronza medalni yurtimizga olib qaytdi. Paraosiyo o'yinlari ham ko'plab g'oliblarimizni kashf etib bordi.

G'oliblikning quvonchli e'tiroflari, shodlik salyutlari, hayajonli hayqiriqlar yurtimiz osmoni qadar o'rladi. Vatan osmonlari kengaydi, o'zbeklar dovrug'i Yer sharining chekka-chekkalarigacha yetib bordi, yurt shuhratiga shuhrat qo'shildi.

Jumlayi jahonga baxt tilab yashaydigan orzu-havasli xalqmiz. Hayotga doim mehr va umid ko'zi bilan qaraymiz. Har bir kundan mo'jizalar kutamiz.

Axir biz, o'zbeklarmiz!

Bu xalq azaliy ildizlari ona zaminga chuqur botgan va tobora yashillanib borayotgan ulkan daraxt kabitdir.

...Ertalabdan maydalab qor yog'a boshladi.

Kimdir darvozani ohista chertdi. Bir necha kundan beri betoblanib to'shakda yotgan Roziya aya yonida o'tirgan nabirasiga "Chiqib qara!" degandek ishora qildi.

Ostonada qo'shni kelinchak qo'lida idishcha bilan turardi. Salom berib, bemorning ahvolini so'radi.

– Qaynoqqina sut olib chiqdim, ichib oling, shamollashingiz o'tib ketadi, – dedi.

Aya kelinchakni duo qildi. So'ng astoydil omonlashdi:

– Bolam, uyingizdagilar yaxshimi? Kuyovim ishiga borib kelib turibdimi, qudalarimning tan-jonlari sog'mi? Go'dagingiz bilan qiynalmayapsizmi?

Kelinchak qo'lini ko'ksiga qo'yib, jilmayganча "Shukr, rahmat!" deb turardi.

U chiqib ketishi bilan nabirasi kulib yubordi.

– Buvijon, kim kelsa, darrov savolga tutib, uyidagilarni birma-bir so'rab chiqasiz-a? Ana chet

el kinolarini ko'ring, birortasi bir-biridan ahvolini so'ramaydi, boshqalarining oilasi bilan ishlari yo'q. Siz nimaga bunaqasiz?

Nabirasining ajabtovur gaplarini eshitgan aya jilmayibgina dedi:

– Faqat men emas, biz, o'zbeklar hammamiz shunaqamiz, qo'zichog'im. Xo'sh, so'rab-surishtirsam, nima bo'пти? Har insonning oilasi tinch bo'lsa, o'ziyam tinch bo'ladi. Ertalab xonadonidan kulib chiqsa, kunbo'yi yayrab yuradi, ishi yurishadi, yonidagilargayam yaxshi gapiradi. Agar uyida tinchlik bo'lmasa-chi? Ko'ziga dunyo zimiston ko'rinadi. Bunday ahvolda bo'lsa, taskin beramiz, ko'nglini ko'taramiz, to'g'ri yo'lga boshlaymiz. Shunda u xatosini tushunib, oilasidagi janjalli ishni hal qiladi, yuz-u ko'ziga yana kulgi yuguradi. Ishqilib, kim bo'lsayam, "Uyim tinch, bola-chaqam omon, hammamiz yaxshi yuribmiz" desa bas, mening ko'nglim yayraydi. Ayt-chi, shu ishim seningcha to'g'rimi yo noto'g'rimi?

Nabira "to'g'ri" degandek bosh silkidi.

...Qor hamon yog'ayotgandi. Derazadan tashqariga boqdim. Tabiatning oppoq bir qasrga o'xshab qolganidan hayratga tushdim. Shunda beixtiyor yangi she'r yozish havasi uyg'ondi, dildagi satrlar tizilib qog'ozga to'kila boshladi:

*Qor yog'ar, oq zarga belanar dunyo,
Borliqqa tikilib, xayol suraman.
Olisda...to'zg'itib qor uyumini,
Yayrab kulayotgan qizni ko'raman.
U – sho'xchan yoshligim, qaynoq, g'uborsiz,
Orzuli yurakning go'zal suvrati.
Bamisli olovday gurullagan so'z.
Chaqmoqdayin jasur, jo'shqin bir tuyg'u,
Ulg'aydik – hayotning ko'pdir sinovi,
Bir-bir o'tib bordik, yuzlar yorishib.
Endi kelajakning tiniq xayoli,
Zahmatlar ichiga ketdi qorishib.
Asli bu tashvishlar arzimayay hech,
Tangri tuhfa etgan qisqa umrga.
Yashay olsak edi, bo'lmay turib kech,
Yurakdan joy berib shodlik, surguga,
Qaniydi, qalb qayta zavq-shavqqa to'lsa.
Issiq chehralarga yugursa kulgi,
Mehr ko'ngillarga bir ko'prik bo'lsa.
So'zlardan to'kilsa, niyatlar ezgu.
Qor yog'ar, qarshimda – kumushrang dunyo,
Oppoq chamanlarni xushhol kezaman.
Nogoh lablarimga qo'ngan zarrada –
Gullayotgan baxtning ta'min sezaman!*

Hayot qanchalar go'zal... Agar ezguliklar yaratib yashasak, u yanada go'zallashadi, chiroyiga chiroy qo'shiladi, turmushimiz ibratga, umrimiz hikmatga aylanadi, shunday emasmi?

Aytishlaricha, qadimda bir mo'ysafid yo'lida donishmandni uchratib qolibdi va "Sizga savolim bor edi, ey, donolar donosi!" debdi.

– Neni so'ramoqchisan, ayt? – debdi donishmand.

– Men faqat odamlar xizmatida bo'ldim. Birovning

yukini qo'lidan oldim, og'irini yengil qildim. Birovning hasratini tinglab, dardiga chora topdim. Boshiga mushkul ish tushgan kishini ovutdim. Beva-bechoralarni o'zimga do'st tutib, sadoqat va muruvvat ko'rsatdim. Yosh-u qari deb o'tirmay, har yumushiga yelka tutdim. Oilamni ham tashlab qo'ymadim, farzandlarimni yurt ishiga yaroqli qilib tarbiyaladim. Topganimni ko'pincha ehson qildim, tilimdan Allohning zikri tushmadi. Xullas, oyoqlarimning madori, bilaklarimning kuchi, ko'zlarimning nuri, belimning quvvati xayrli va savob ishlarga sarf bo'ldi. Bu kun umr intihosiga yetay deb qoldi. Endi bir narsani bilгим keladi. Men qanday yashadim? Yaxshi inson bo'la oldimmi? Ey, hikmatlar tojini kiygan donishmand, sendan shu savolimning javobini kutaman.

– Sen har kimga nasib bo'lavermaydigan go'zal umrni yashab o'tibsan. Odamlar baxt-saodati yo'lida sarflagan mehri, muhabbating va ko'rsatgan sadoqating aslida umringning hikmatlaridir. Garchi qachondir dunyodan o'tsang-da, bu hikmatlar sening ikkinchi umringga aylanib, hayotingni davom ettiraveradi. Buni zinhor unutma! – debdi donishmand.

Donishmandning gaplarini tinglab, mo'ysafidning chehrasi yorishibdi. So'ng "Qolgan umrimning so'nggi onlariga qadar elning xizmatida bo'lay", deya yana yo'lga o'tlanibdi.

Chumolining harakatini hech kuzatganmisiz? U biror joyga ketayotgan bo'lsa, yo'lini to'ssangiz ham, orqaga qaytmaydi, boshqa yo'l topib, oldinga ketaveradi.

Qarangki, chumolilar uyiga yegulik tashib, yozdayoq qishning g'aminini yeydi. Ular sovuq tushishi bilan uyalariga kirarkanlar, bu qish uzoqqa cho'zilmasligini, tezda havo isishini biladilar, doim yaxshi o'zgarishlarni kutib yashaydi.

Biz yashar ekanmiz, ezgu maqsadlarimiz tomon dadil borishimiz zarur, yot g'oyalar bizning maqsadlarimizga to'siq bo'lmasin, yo'limizdan aslo qaytmaylik, shundagina hayotimiz mazmuni ortaveradi.

Unutmaylik, birovlariga yordam berish odamga zavq bag'ishlaydi, omadga yo'l ochadi.

"O'zgalarning baxtli bo'lishiga ko'maklashish insonning jamiyatdagi darajasini yuqoriga ko'taradi", deydi faylasuflardan biri.

Yilni moziy tomon kuzatib, yangi yilni qarshi olish arafasida turibmiz. Kelajak bizga baxt darvozalarini, albatta ochadi, qarabsizki, omad hayotimizning bir qismiga aylanadi. Buning uchun, avvalo, maqsad yo'lidagi harakatni ko'paytiraylik. Barcha qiyinchiliklar oldida taslim bo'lmagan, hech qachon umidsiz bo'lib orqaga qaytmagan odam qaysiki sohada bo'lmasin, albatta, muvaffaqiyat qozonadi.

Kelgusi yilda muvaffaqiyatlarimiz ko'payaversin, salmog'i bir necha hissalariga oshsin. Jamiyat taraqqiyotini tezlashtirishda yanada faol bo'laylik. Shunday yashaylikki, butun olam ahli havas qilsin. Axir biz, o'zbeklarmiz!

Gulchehra JAMILOVA,
O'zbekistonda xizmat
ko'rsatgan jurnalist

Mudofaaga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotlarida

Keyingi yillarda yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish hamda ularni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasida O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotining Jizzax viloyati kengashi tasarrufidagi Paxtakor tumani o'quv sport-texnika markazi nodavlat ta'lim muassasasi jamoasi tomonidan ham ko'plab xayrli ishlar amalga oshirilmoqda.



EZGU AMALLAR SALMOG'I

Xususan, harbiy-vatanparvarlik g'oyalari ni targ'ib etish, ommaviy kasb xodimlarini tayyorlash hamda sportning texnik va amaliy turlarini rivojlantirish borasidagi yutuqlar shular jumlasidan.

Bu boradagi ishlar ko'lamini kengaytirish maqsadida tashkilotda Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan tuman hokimligi, harbiy qismlar, mudofaa ishlari, maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlari, Yoshlar ishlari agentligi bilan hamkorlikda qator tadbirlar amalga oshirilmoqda.

– Yoshlarimizni ona Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash maqsadida o'tkazilayotgan tadbirlarda tumanimizdagi bir qator umumta'lim maktablaridan o'quvchi-yoshlar faol ishtirok etmoqda, – deydi tuman O'STM NTM direktori Mustafoqul Abulqosimov. – "Uch avlod uchrashuvi", "Ochiq eshiklar kuni" kabi tadbirlar davomida ishtirok etgan turli soha vakillari mamlakatimizda yoshlar uchun yaratilayotgan sharoitlar hamda mavjud imkoniyatlardan unumli foydalanish to'g'risida muhim tavsiyalarni berdi.

Bunday tadbirlardan ko'zlangan asosiy maqsad – kelgusida yoshlarning barkamol shaxs sifatida tarbiyalanishiga munosib hissa qo'shishdan iborat. Shu bois bu kabi xayrli amallar salmog'ini kelgusi yilda ham yanada oshirish maqsadida harbiy-vatanparvarlik targ'iboti faol tarzda olib borilmoqda.

Bu borada yoshlarni sportning texnik va amaliy turlariga jalb etgan holda ko'rgazmali tadbirlar va sport musobaqalarini tashkil etish muhim jarayonlardan. Mazkur tashkilotda yoshlar orasida harbiy-vatanparvarlik va sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, ularni sport to'garaklariga jalb etish borasida muayyan natijalarga erishilyapti.

Shu kunlarda markazda bo'ljak haydovchilarning malakasini oshirish, ularning o'quvini namunali tashkil etish borasida ham bir qancha amaliy ishlar qilinmoqda. Buning uchun o'quv binosidagi sinfxonalar zamon talablari asosida jihozlandi.

Bu esa, o'z navbatida, tashkilotda "B", "BC" toifali haydovchilar tayyorlash va qayta tayyorlashda qulay imkoniyatlarni yaratdi.

Akbar ALLAMURODOV



Fursatdan foydalanib,
“Vatanparvar” tashkiloti Paxtakor
tumani O‘STM NTM jamoasi barcha
yurtdoshlarimizni yaqinlashib
kelayotgan yangi 2026-yil bilan
muborakbod etadi.

Yangi yil barchangizning
xonadoningizga fayz-u baraka olib
kelsin, aziz yurtdoshlar!

Mudofaa vazirligi faxriylarining Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan O'zbekiston yoshlariga murojaati

EY, AZIZ VATANDOSH, O'zbekistonning YOSH AVLODI VAKILI!

Vatan himoyasi bu faqatgina qurol ko'tarish va yurt tinchligini ta'minlash emas. Bu keng ma'noli, sharaflı va oliy burchdir!

Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, harbiy-jangovar salohiyat va yuksak ma'naviy salohiyat O'zbekiston Qurolli Kuchlarining ikki buyuk tayanchidir. Shu ma'noda kuchli davlat bu faqatgina zamonaviy armiya emas, balki yuksak ma'naviyatli, bilimli va mas'uliyatli jamiyatdir. Demak, har bir yoshning ilm olishi, kasb egallashi, innovatsiyalarga intilishi va Vatan ravnaqi yo'lida o'z salohiyatini to'liq safarbar etishi mamlakat xavfsizligi va barqaror taraqqiyotining ishonchli kafolatidir.

Bugungi kunda **zamonaviy Vatan himoyachisi bu nafaqat jismonan baquvvat, balki ma'nan yetuk, dunyoqarashi keng, zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega, ilg'or fikrlaydigan shaxsdir.** U axborot texnologiyalarini puxta o'zlashtirgan, kibertahdidlarga qarshi tura oladigan, innovatsion g'oyalarni ishlab chiqib, ularni amaliyotga tatbiq etish salohiyatiga ega bo'lgan fidoyi inson hisoblanadi.

Agar siz harbiy yoki zamonaviy muhandis bo'lsangiz, Vatanimiz mudofaa qudratini mustahkamlaysiz.

Agar iqtisod yoki moliya sohasida faoliyat yuritsangiz, mamlakat taraqqiyotiga xizmat qilib, O'zbekistonning xalqaro nufuzini yuksaltirishga hissa qo'shasiz.

Agar IT-mutaxassisi bo'lsangiz, Vatanimizning raqamli makoni va axborot chegaralarini himoya qilasiz.

Agar o'qituvchi yoki ustoz bo'lsangiz, yurt kelajagi bo'lgan, bilimli, ma'nan barkamol avlodni tarbiyalaysiz.



Kapitan Oritjon MAMAJONOV

Shuni unutmang, sizlarning qo'lingizda nafaqat kelajak kaliti, balki Vatanimizning buguni ham mujassam!

SIZNING KUCHINGIZ NIMADA?

Sizning eng asosiy kuchingiz va ishonchli qalqoningiz, bu bilimingizdir. Bugungi kunda Vatan himoyasi yo'lida ilm, intizom va innovatsiyalar ahamiyati jihatidan quroldan kam emas. Vatan himoyasi bu har bir inson uchun hayot mazmuni, faxr va sharaf manbaidir. Vatanga xizmat qilish – qaysi sohada faoliyat yuritishingizdan qat'i nazar, ulkan imkoniyat.

Ushbu imkoniyat sizning hayotingizga quyidagilarni olib kiradi:

1. Ruhiy matonat – hech qachon irodangiz sinmaydi.
2. Shaxsiy intizom – hayotda muvaffaqiyatga erishishning asosiy kalitiga ega bo'lasiz.

3. Yetakchilik mahorati – o'z atrofingizdagilarni ruhlantirish va boshqarish qobiliyatini, liderlik maqomi.

4. Kelajakdagi muvaffaqiyatlar garovi – "Vatan himoyachisi" degan yuksak nom sizning jamiyat oldidagi yuksak mas'uliyatingiz, qadriyatingiz va kelajakdagi muvaffaqiyatlaringiz.

Unutmang! Sizning matonatli, bilimli va vijdonli bo'lishingiz bu O'zbekistonning eng katta boyligi va eng ishonchli himoyasidir.

Davlatimiz rahbari siz – yoshlarga ishonadi, sizning kuchingizga, aqlingizga va fidoyiligingizga tayanadi. Bu ishonchni oqlash esa har birimiz uchun eng ulug' burch.

Qayerda bo'lmang, kim bo'lmang – har doim Vatanning

haqiqiy farzandi va himoyachisi bo'lib qoling! Bu yo'l hayotingizga chuqur mazmun, yuksak maqsad va bebaho tajriba olib kiradi.

Vatan himoyachilari kuni barchamizga muborak bo'lsin!

O'tmishi buyuk, kelajagi porloq bo'lgan xalqimizning ulkan maqsadlarini siz, aziz yoshlar, albatta, amalga oshirasiz!

Yashasin, O'zbekiston!

Yashasin, O'zbekiston yoshlari!

@Vatanparvargazetasi_bot
"Vatanparvar" birlashgan tahririyati bilan bog'lanish uchun telegram bot



BIZ HAQIMIZDA

VATANPARVAR



MUASSIS
O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
MUDOFAA
VAZIRLIGI

www.mudofaa.uz

Tahririyat kengashi:
general-mayor Hamdam Qarshiyev
podpolkovnik Timur Narziyev
Maqsud Abilov

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin. Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti – "Vatanparvar" birlashgan tahririyatining kompyuter markazida sahifalandi.

Bosh muharrir:
podpolkovnik Ahror Ochilov

ISSN 2010-5541

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Telefonlar:
kotibiyat: 55 511-25-90
buxgalteriya: 55 511-25-76
yuridik bo'lim: 55 511-25-72

Navbatchi: podpolkovnik Gulnora Xodjamuratova
Sahifalovchi: Dilnoza Meliqo'ziyeva
Musahhih: Zebo Sariyeva

Buyurtma: V-6062
Hajmi: 6 bosma taboq
Bichimi: A3
Adadi: 31 997 nusxa
Bosishga topshirish vaqti: 14:00
Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "O'zbekiston" NMIU mas'ul.

Gazetaning navbatdagi soni 3-yanvar shanba kuni chiqadi. Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqqa boshlagan.

Nashr ko'rsatkichi: 114.
Bahosi: kelishilgan narxda.

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Sag'bon ko'chasi, 382-uy.

t.me/mv_vatanparvar_uz
t.me/mudofaavazirligi

www.mv-vatanparvar.uz
vatanparvar-bt@umail.uz

mudofaavazirligi

mudofaavazirligi

www.youtube.com/c/UzArmiya